

## **Abdulmalik Qosim**

### **Bismillahir rohmanir rohim**

#### **Muqaddima**

Payg‘ambarini hidoyat va haq din bilan yuborgan Alloh ta’olaga hamdu-sanolar, barcha olamga rahmat qilib yuborilgan payg‘ambarimizga, U zotning oilasi va barcha sahobalariga salavotu salomlar bo‘lsin.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning siyratlari va hayotining nozik tafsilotlarini ommaga qulay va yengil uslub bilan yetkazish maqsadida ushbu sahifalarni to‘ldirmoqdamiz...

Bu yozganlarimiz ul zotning hayotlari va go‘zal sifatlarining ba’zilari bo‘lib, biz ularni to‘laligicha bayon qilmadik. Balki, ulardan har birining bayoni uchun ikki yoki uch hadis keltirish bilan kifoyalandik.

Holbuki, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayoti - Ummat hayoti, da’vat va hayot dasturi edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam toat-ibodatda, go‘zal axloq va muomalada peshvo edilar. U kishiga Alloh ta’oloning aytgan maqtovi yetarlidir:

(وَإِنَّكَ لَعَلَىٰ خُلُقٍ عَظِيمٍ )

**«Siz ulug‘ axloq uzrasiz».**[\[1\]](#)

Ahlussunna val jamoa Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni Alloh O‘zi sifatlaganidek, U Allohning quli va rasuli, do‘sti va tanlagani deb biladilar. Uni bolalari va otalaridan, hattoki o‘zlaridan ko‘ra ko‘proqsevadilar. Biroq ortiq darajada g‘uluvga ham ketmaydilar, u zot uchun yuqorida aytilgan manzilatlar kifoyadir.

Bugungi kunda odamlarning ko‘plari Rasulullohhaqlarida g‘uluv ketgan yo esa umuman unutilganlar.

Ba’zilari g‘uluv ketib, oxir oqibat shirk keltirish darajasiga yetib bordilar va duo qilib, o‘z ehtiyojlarini u kishidan so‘ray boshladilar.

Ba’zilari esa Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning olib kelgan yo‘li va siyratiga ergashishdan g‘aflatda qolib, U zotni o‘z hayoti uchun namuna qilib olmadi.

Bizning yo‘limiz - Rasulullohni o‘zlari buyurganlaridek sevamiz, U zotga buyurgan narsalarida ito‘at etamiz, qaytargan narsalaridan tiyilamiz.

Biz uchunbu dunyoda Rasulullohni ko'rish nasib etmagan, o'rtamizda qancha-qancha asrlar o'tgan bo'lsa-da, bizlarni Alloh ta'olo quyidagi hadisda zikr etilgan kishilardan qilishini so'raymiz:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ لَوَدِدْنَا أَنَّا قَدْ رَأَيْنَا إِخْوَانَنَا قَالُوا يَا رَسُولَ اللَّهِ أَوْلَسْنَا إِخْوَانَكَ قَالَ أَنْتُمْ أَصْحَابِي وَإِخْوَانِي الَّذِينَ يَأْتُونَ مِنْ بَعْدِي وَأَنَا فَرَطُكُمْ عَلَى الْخَوْضِ قَالُوا يَا رَسُولَ اللَّهِ كَيْفَ تَعْرِفُ مَنْ لَمْ يَأْتِ مِنْ أُمَّتِكَ قَالَ أَرَأَيْتُمْ لَوْ أَنَّ رَجُلًا لَهُ خَيْلٌ غُرٌّ مُحَجَّلَةٌ بَيْنَ ظَهْرَيْنِي خَيْلٌ دُهِمٌ بَيْنَهُمْ أَمْ يَكُنْ يَعْرِفُهَا قَالُوا بَلَى قَالَ فَإِنَّهُمْ يَأْتُونَ يَوْمَ الْقِيَامَةِ غُرًّا مُحَجَّلِينَ مِنْ أَثَرِ الْوُضُوءِ قَالَ أَنَا فَرَطُكُمْ عَلَى الْخَوْضِ (رواه ابن ماجه)

*Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:*

**«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Qani endi birodarlarimizni ko'rsak edi» - dedilar.**

**Sahobalar: «Biz sizning birodarlaringiz emasmizmi?» - deb so'radilar.**

- **«Sizlar mening sahobalarimsiz. Birodarlarimiz esa hanuz kelmadilar» - dedilar.**

- **«Yo Rasululloh, hanuz kelmagan ummatingizni qanday taniysiz?» - deb savol berdilar.**

**Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Aytinglarchi, agar bir kishining qashqa otlari tim qora otlar orasida yurgan bo'lsa u o'z otlarini taniy oladimi?» - dedilar.**

- **«Bo'lmaschi, yo Rasululloh» - deb javob berdilar.**

**Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Ular Qiyomat kuni tahoratning asaridan (yuz-qo'llari) porlagan holda keladilar. Men esa ularni havzim oldida kutib turaman» — dedilar». [2]**

Alloh ta'olodan bizlarni ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning osorlariga ergashish, siyratlaridan namuna olish va sunnatlarini mahkam tutganlar qatorida qilishini,

shuningdek, bizlarni Rasululloh sollallohu alayhi va sallambilan birga Adn jannatlarida birga qilishini so'raymiz.

Payg'ambarimizga, ul zotning oila va as'hoblariga Alloh ta'oloning salavotu salomlari bo'lsin.

*Abdulmalik ibn Muhammad ibn Abdurrahmon al-Qosim*

## Ziyorat

O'tmishga qaytib, tarix sahifalarini varaqlaylik, undagi yozuvlarni o'qib, har bir satri haqida tafakkur qilaylik hamda ular orqali Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xonadonlarini ziyorat etaylik...

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning uylaridagi holat bilan tanishib, u zotning so'zlariga quloq solaylik hamda payg'ambarning uyida faqatgina bir kun mehmon bo'lib, darsu-ibrat olaylik-da, shu bilan qalbimizni yoritaylik...

Odamlarning bilimi oshib, ko'p narsalarni o'qib, sharqu g'arbni kitoblar, maktublar, filmlar va hujjatlar osha ziyorat eta boshladilar...

Biz esa Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xonadonlarini shar'iy ziyorat qilishga, unda ko'rgan va bilgan narsalarimizni hayotimizga jiddiy tatbiq qilishga ulardan ko'ra loyiqroqmiz. Ushbu muborak xonadonni ziyorat etarkanmiz, uning ayrim jihatlariga alohida to'xtalib o'tamiz. Shoyad ko'rgan narsalarimizdan ibrat olsak va shu bilan nafslarimizni tarbiyalasak.

Musulmon do'stim!

Biz moziy sahifalarini o'tmishda yashab o'tgan insonlarning hayotlari bilan tanishish va o'zimiz uchun notanish bo'lgan narsalarni ko'rib zavqlanishuchungina varaqlamoqchi emasmiz. Aksincha, Alloh tao'loning o'z payg'ambarini sevishga bo'lgan amriga -Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning hayotlarini o'qib-o'rganish, sunnatlariga ergashish va u zotning dasturi va yo'llarida yurish bilan - itoat etamiz. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bo'lgan muhabbatning eng muhim belgisi esa, buyurgan narsalarida u zotga itoat etish, qaytargan va to'xtatgan narsalaridan tiyilish, demakdir...

Alloh ta'olo Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni peshvo va namuna qildi. Shuning uchun ham, U Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bo'ysunib, itoat etishni farz qilib dedi:

﴿قُلْ إِنْ كُنْتُمْ تُحِبُّونَ اللَّهَ فَاتَّبِعُونِي يُحْبِبْكُمُ اللَّهُ وَيَغْفِرْ لَكُمْ ذُنُوبَكُمْ وَاللَّهُ غَفُورٌ رَحِيمٌ﴾

«(Ey Muhammad), ayting: «Agar Allohni yaxshi ko'rsangizlar, menga ergashinglar, shunda Alloh sizlarni (ham) yaxshi ko'radi va gunohlaringizni kechiradi. Alloh kechiruvchi va rahmli zotdir»[3];

﴿لَقَدْ كَانَ لَكُمْ فِي رَسُولِ اللَّهِ أُسْوَةٌ حَسَنَةٌ لِمَنْ كَانَ يَرْجُو اللَّهَ وَالْيَوْمَ الْآخِرَ وَذَكَرَ اللَّهَ كَثِيرًا﴾

«Allohning payg'ambarida sizlar - Alloh va oxiratdan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod olgan kishilar uchunnamuna bordir».[4]

Alloh ta'olo payg'ambarga itoat etishni Qur'on Karimning qirqqa yaqin yerida zikr qildi (Ibn Taymiyya, «Majmu'ul-fatovo»,1:4).

Bandaning baxt-saodati, oxiratdagi najoti Allohning payg'ambariga ergashishdadir:

﴿ تِلْكَ حُدُودُ اللَّهِ وَمَنْ يُطِغِ اللَّهَ وَرَسُولَهُ يُدْخِلْهُ جَنَّاتٍ تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا وَذَلِكَ الْفَوْزُ الْعَظِيمُ a وَمَنْ يَعْصِ اللَّهَ وَرَسُولَهُ وَيَتَعَدَّ حُدُودَهُ يُدْخِلْهُ نَارًا خَالِدًا فِيهَا وَلَهُ عَذَابٌ مُهِينٌ ﴾

**«...Kim Alloh va uning rasuliga itoat etsa ostlaridan daryolar oqib turadigan jannatlarga kiritadi. Ular u yerda mangu qoladilar. Bu buyuk yutuqdir. Kim Allohva uning rasuliga osiy bo'lib Allohning belgilab qo'ygan hadlaridantajovuz qilsa, uni abadiy qoladigan joyi bo'lmish jahannamga kiritadi. Va uning uchunxorlovchi azob bordir».**[\[5\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'zlarini yaxshi ko'rishni iymon halovatiga erishish sabablaridan biri qildilar:

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ ثَلَاثٌ مَنْ كُنَّ فِيهِ وَجَدَ خَلَاوَةَ الْإِيمَانِ أَنْ يَكُونَ اللَّهُ وَرَسُولَهُ أَحَبَّ إِلَيْهِ مِمَّا سِوَاهُمَا ... (متفق عليه)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

**«Uch xislat bor. Ular kimda bo'lsa, u odam iymon halovatini topadi:«Alloh va rasuli unga boshqalardan ko'ra sevimliroqbo'lsa..».** [\[6\]](#)

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لَا يُؤْمِنُ أَحَدُكُمْ حَتَّىٰ أَكُونَ أَحَبَّ إِلَيْهِ مِنْ وَاَلِدِهِ وَوَالِدِهِ وَالنَّاسِ أَجْمَعِينَ (رواه مسلم)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

**«Men sizlardan biringizga farzandidan, otasidanva barcha insonlardan ko'ra sevimliroqbo'lmagunimcha, u odam (haqiqiy) mo'min bo'la olmaydi»**[\[7\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayotlari pokiza hayot bo'lib, undan o'rganamiz va uni hayotimizga tatbiq etamiz.

**Safar**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xonadonlari tomon safar qilish, ul zot hayotining ikir-chikirlari va muomala san'atini ko'rish aslida o'ta qiziqarli ish. Endi biz shu ish ortidan ajru-savobni ham umid qilsakchi?!

Albatta, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayoti nasihat va ibrat, siyrat va namuna, ergashish va o'rnak olishdir. Bu safarimiz kitoblar va sahobalar tilidan naql qilingan rivoyatlar vositasi ila bo'ladi. Zotan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xabar berganlaridek, uchta masjididan boshqa har qanday joyga (ibodat qasdi bilan) safar qilish mumkin emasdir.

Abu Said al-Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لَا تُشَدُّ الرَّحَالُ إِلَّا إِلَى ثَلَاثَةِ مَسَاجِدَ  
مَسْجِدِ الْحَرَامِ وَمَسْجِدِي هَذَا وَمَسْجِدِ الْأَقْصَى (رواه الترمذي)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

**«Uchta masjididan – Masjidul Harom, Mening Masjidim va Masjidul Aqsodan boshqa o'ringa (ziyosat va ibodat uchun) safar qilinmaydi»[8].**

Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ushbu amrlariga bo'ysunishimiz va uch masjididan boshqa hech bir yerga (ibodat niyatida) qasdli safarga chiqmasligimiz kerak. Zero, Alloh ta'olo:

( وَمَا آتَاكُمُ الرَّسُولُ فَخُذُوهُ وَمَا نَهَاكُمْ عَنْهُ فَانْتَهُوا )

**«Payg'ambar olib kelgan narsalarni mahkam ushlanglar va qaytargan narsalardan tiyilinglar!»**,[9] demoqda.

Biz payg'ambarimizsollallohu alayhi va sallamning qadamjolarini ham qasd qilmaymiz.

Ibn Vazzoh rahimahulloh dedilar:

*«Umar ibn Xattob roziyallohu anhu ostida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bay'at qilingan daraxtni kesib tashlashga amr qildi. Chunki, odamlar u joyga borib, daraxt ostida namoz o'qir edilar. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu odamlardan shirk amali sodir bo'lib qolishidan qo'rqan edilar».*

Ibn Taymiyya rahimahulloh Hiro g'ori haqida shunday deydi:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam payg'ambar bo'lishdan avval u g'orda ibodat qilgan va o'sha g'orda birinchi vahiy nozil bo'lgan edi. Biroq, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vahiy nozil bo'lgandan so'ng, u g'orga, hatto uning yaqiniga ham qaytib bormadilar, shuningdek as'hoblari ham yaqin yo'lamadilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam payg'ambar bo'lganlaridan so'ng o'nyildan ko'proqMakka shahrida qolganlariga qaramay, biron marta ham Hiro g'orini ziyosat qilmadilar va unga chiqmadilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga iymon*

keltirgan biron bir sahoba ham, u g'orga bormadi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hijratdan so'ng Hidaybiyya va Ji'irrona hamda Fath yilidagi umralarida Makkaga bir necha marta keldilar va Fath yilida yigirma kuncha qoldilar, ammo Hiro g'origa bormadilar va uni ziyorat qilmadilar»[\[10\]](#).

Mana biz Madinai Munavvaraga nigoh tashlaymiz. Uning katta belgilaridan biri – Uhud tog'i ro'paramizda ko'rina boshladi.

Anas ibn Molik roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ طَلَعَ لَهُ أُحُدٌ فَقَالَ هَذَا جَبَلٌ يُجِبُّنَا وَنُجِبُهُ (رواه البخاري)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Uhud tog'iga ko'zlari tushganda: «**Bu tog' bizni sevadi va biz ham uni sevamiz**» degan edilar.[\[11\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning uylariga qadam ranjida qilishdan avval, uyning qurilishi va shakliga nazar tashlaymiz. Agar kichkinagina uy, soddagina yotoq-joyini ko'rsak bundan ajablanmaylik. Chunki, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dunyoda odamlarning eng zohidi, dunyoviy ashyolari kam, dunyoning ziynat va boyliklariga ko'z tikmagan, balki «quvonchi namozda qilingan[\[12\]](#)» zot edilar.

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مَا لِي وَمَا لِلدُّنْيَا مَا أَنَا فِي الدُّنْيَا إِلَّا كَرَائِبٍ اسْتَضَلَّتْ تَحْتَ شَجَرَةٍ ثُمَّ رَاحَ وَتَرَكَهَا (رواه الترمذي)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dunyo haqida: «**Mening dunyo bilan ishim nima! Mening dunyodagi misolim bir daraxt ostida ozgina salqinlab, so'ngra uni tark qilib yo'lida davom etgan otlq kabidir**», degan edilar..[\[13\]](#)

Endi Madina ko'chalarida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning uylari tomon yurib bormoqdamiz. Ana, ba'zilar xurmo butoqlari ustiga loy chaplab, ba'zilar esa tosh terib qurilgan, tomlari xurmo barglari bilan to'silgan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayollarining uylari ko'rindi.

Hasan roziyallohu anhu shunday der edi:

«Men Usmon roziyallohu anhuning xalifalik davrlarida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayollarining uylariga kirardim, shifrlarini (pastligi sabab) qo'llarim bilan ushlardim».[\[14\]](#)

Bu uylar kamtarona va kichik hujralardan iborat edi. Biroq, iymon, toat, vahiy va risolat bilan obod edi.

## **Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ko‘rinishlari**

Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning uylariga yaqinlashib, kirish uchun ruxsat so‘rab eshiklarini qoqamiz. So‘ngra, xayolan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni ko‘rgan odamlar bilan suhbatga kirishamiz. Ular bizga Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning muborak tashqi ko‘rinishlari va tabassumli yuzlarini ko‘rib turganimizdek ta’riflab beradi.

Baro ibn Ozib roziyallohu anhu dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam odamlar ichida yuzi chiroylirog‘i, axloqi go‘zalrog‘i va o‘rta bo‘yli edilar»*[\[15\]](#).

Boshqa rivoyatda dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o‘rta bo‘yli, keng yelkali bo‘lib, sochlari quloqlarining yumshoqlari qadar tushar edi. Men qizil libosda u zotdan ko‘ra chiroyliroqodamni ko‘rmadim»*[\[16\]](#).

Abu Isxoq Sabi‘iy rahimahulloh dedilar:

*«Bir odam Baro‘ ibn Ozibdan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yuzlari qilich kabi edimi?» — deb so‘raganida: «Yo‘q, Oy kabi edi» — deb javob berdi»*.[\[17\]](#)

Anas roziyallohu anhu dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning kaftlaridan ko‘ra muloyimroqbo‘lgan na ipak na boshqa narsani ushlamadim va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning bo‘yidan ko‘ra xushbo‘yroqhidni topmadim»*.[\[18\]](#)

Hayo ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sifatlaridan biri edi. Abu Sa‘id al-Xudriy roziyallohu anhu dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam chimildiqa kirgan bokira qizdan ham hayoliroqedilar. Agar biron narsani yoqtirmasalar, biz uni yuzlaridan o‘qir edik»*[\[19\]](#).

Bular Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xilqati va xulqi haqida naql qilingan ba‘zi sifatlar, xolos. Holbuki, Alloh ta‘olo payg‘ambarimizsollallohu alayhi va sallamning xilqati va xulqini mukammal qilib yaratgandir.

## **Gapirishlari**

Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni va u zotning ba‘zi sifatlarini ko‘rdik. Endi u zotning gapirishlari va so‘zlash uslublari bilan tanishamiz.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sizlar kabi tez gapirmas, balki, ravon va dona–dona gapirar va atrofida gilar uning so‘zlarini yodlab olar edilar»*.[\[20\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muloyim, atrofdagi odamlarning tushunishlarini sevar, Ummatga haris bo‘lganlaridan odamlar o‘rtasidagi farqlarni, tushunish va anglab olish darajalarini rioya qilar edilar. Bu esa sabrli va halim bo‘lish kerakligini taqozo qilar edi.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning so‘zlari uni eshitgan har bir kishi tushuna oladigan dona–dona edi*». [\[21\]](#)

Siz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning so‘zlari yaxshi tushunilishi uchun bir necha marta takrorlayotgandagi sabrlari va yuraklarining kengligini mulohaza qiling!!..

Anas ibn Molik roziyallohu anhu:

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yaxshi tushunilishi uchun bir so‘zni uch marta takrorlar edilar*» — dedi. [\[22\]](#)

Ba’zi odamlar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelganida u zotning haybatidan qo‘rquvga tushar, shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularga muloyim gapirib, yuraklaridagi qo‘rquvni ketkazar edilar.

AbuMas’ud (Uqba ibn Amr) roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَبِي مَسْعُودٍ قَالَ أَتَى النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ رَجُلٌ فَكَلَّمَهُ فَجَعَلَ تُرَعْدُ فَرَأَيْتُهُ فَقَالَ لَهُ هَوِّنْ عَلَيْكَ فَإِنِّي لَسْتُ بِمَلِكٍ إِنَّمَا أَنَا ابْنُ امْرَأَةٍ تَأْكُلُ الْقَدِيدَ (رواه ابن ماجه)

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzuriga bir odamkeldi, u bilan gaplashdilar. U odamning oyoq-qo‘li titray boshladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga: «Tinchlan, men podshoh emasman. Men quritilgan go’sht yeydigan oddiy bir ayolning farzandiman, xolos» - dedilar*» [\[23\]](#).

## Uy jihozlari

Biz payg‘ambar-sollallohu alayhi va sallamning uylari ichidamiz. Keling, unga bir nigoh tashlaylik. Sahobalar bizga bu uyda bo‘lgan ko‘rpa-to‘shak va boshqa jihozlar haqida so‘zlab bersinlar.

Tabiiyki, biz xonalar va hovlilarga iznsiz nigoh tashlash mumkin emasligini bilamiz. Biroq, bu muborak uyning ba’zi ashyolariga namuna va o‘rnak olish uchun qaraymiz. Darhaqiqat, bu uyning poydevori kamtarlik, sarmoyasi esa iymondir. Uning devorlariga boqing, unda bugungi kunda ko‘plab musulmonlar uylariga osib qo‘yadigan jonli narsalarning suratlari yo‘q!

Abu Talha roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:



عَنْ أَبِي طَلْحَةَ عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ لَا تَدْخُلُ الْمَلَائِكَةُ بَيْتًا فِيهِ كَلْبٌ وَلَا صُورَةٌ (رواه ابن ماجه)

## ***Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:***

**«It va suratlar bo'lgan uyga farishtalar kirmaydi».**[\[24\]](#)

Endi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kundalik hayotida iste'mol qilgan buyumlarga bir nazar tashlang.

Umar ibn Xattobdan rivoyat qilinadi:

حَدَّثَنِي عُمَرُ بْنُ الْخَطَّابِ قَالَ دَخَلْتُ عَلَى رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَهُوَ عَلَى حَصِيرٍ قَالَ فَجَلَسْتُ فَإِذَا عَلَيْهِ إِزَارٌ وَلَيْسَ عَلَيْهِ غَيْرُهُ وَإِذَا الْحَصِيرُ قَدْ أَثَّرَ فِي جَنْبِهِ وَإِذَا أَنَا بِقَبْضَةٍ مِنْ شَعِيرٍ نَحْوِ الصَّاعِ وَقَرِظٍ فِي نَاحِيَةِ فِي الْعُرْفَةِ وَإِذَا إِهَابٌ مُعَلَّقٌ فَابْتَدَرْتُ عَيْنَايَ فَقَالَ مَا يُبْكِيكَ يَا ابْنَ الْخَطَّابِ فَقُلْتُ يَا نَبِيَّ اللَّهِ وَمَالِي لَا أَبْكِي وَهَذَا الْحَصِيرُ قَدْ أَثَّرَ فِي جَنْبِكَ وَهَذِهِ حِرَانَتُكَ لَا أَرَى فِيهَا إِلَّا مَا أَرَى وَذَلِكَ كِسْرَى وَقَيْصَرٌ فِي الثَّمَارِ وَالْأَنْهَارِ وَأَنْتَ نَبِيُّ اللَّهِ وَصَفْوَتُهُ وَهَذِهِ حِرَانَتُكَ قَالَ يَا ابْنَ الْخَطَّابِ أَلَا تَرْضَى أَنْ تَكُونَ لَنَا الْآخِرَةَ وَهُمْ الدُّنْيَا قُلْتُ بَلَى (رواه ابن ماجه)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kirdim, ul zot bo'ya ustida yotibdilar. Oldilariga o'tirdim, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning egnida faqat izor (beldan pastga kiyiladigan kiyim) bor edi, xolos. Bo'ya yonboshlariga botib ketibdi, uydagi narsalarga nazar tashladim. Uyning bir chetida uch-to'rt xovuch arpa, akas qo'zog'i va devorda osig'lik meshni ko'rib ko'zimdan yosh quyildi.*

**-«Ey Umar, nimaga yig'layapsiz», deb so'radilar.**

*- «Ey Nabiyulloh, nega yig'lamas ekanman, bo'ya yonboshingizga botib ketgan bo'lsa, uyingizda nima borligini ham ko'rib turgan bo'lsam! Kisro va Qaysarlarni qarang, noz-ne'matlar, anhorlar ichra bo'lishsa-yu, siz Allohning payg'ambari, muxtor bandasining holi bu bo'lsa!»*

**- «Ey Xattobning o'g'li, oxirat bizga va dunyo ularga bo'lishiga rozi emasmisiz?!» - dedilar.**[\[25\]](#)

Sobit rahimahulloh dedilar:

*«Anas ibn Molik roziyallohu anhu bizga yog'ochdan qilingan, qo'pol va belidan temir «belbog'» bilan bog'langan qadahni ko'rsatdi va: «Ey Sobit, bu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qadahlari» - dedi»*[\[26\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shu qadahda suv, ivitilgan xurmo sharbati, asal va sut ichar edilar.

Anas roziyallohu anhu: «*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ichar ekanlar uch marta nafas olar edilar*» — dedi[27].

Ya'ni, bir ko'tarishda simirmasdan, uch bo'lib ichar edilar.

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam idish ichida nafas olish yoki idishga puflashdanqaytarganlar*[28].

Ammo Rasululloh sollallohu alayhi va sallam jihod, harbiy to'qnashuvlar va jangovar kunlarida kiygan sovut hozir uyda yo'q bo'lsa kerak. Oisha roziyallohu anhoning aytishiga qaraganda, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni bir yahudiydan qarzga olgan o'ttiz so' arpa evaziga uning oldiga garovga qo'ygan ekanlar[29]. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafot etdilar, sovut esa yahudiy oldida garovligicha qoldi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam oilasi oldiga qo'qqisidan bostirib kelmas, balki, kirishlarini oilasiga bildirib kirardilar. Kirganlarida ularga salom berar edilar[30].

Sinchkov ko'z va ongli qalb bilan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ushbu so'zlarida fikr yuriting:

Fazola ibn Ubayd roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ فَضَالَةَ بْنِ عُبَيْدٍ أَنَّهُ سَمِعَ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ طُوبَى لِمَنْ هُدِيَ إِلَى الْإِسْلَامِ  
وَكَانَ عَيْشُهُ كَفَافًا وَقَنَّعَ (رواه الترمذي)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar*

**«Islomga hidoyatlangan, hayoti kundalik tirikchiligiga yetadigan darajada bo'lib, shunga qanoat qilgan kishiga Tubo (jannati) bo'lsin!»**[31].

Mana bu ulug' hadisga hamquloq soling:

Abdulloh ibn Mihson roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ سَلَمَةَ بْنِ عُبَيْدِ اللَّهِ بْنِ مُحْصِنِ الْخَطْمِيِّ عَنْ أَبِيهِ وَكَانَتْ لَهُ صُحْبَةٌ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مَنْ أَصْبَحَ مِنْكُمْ آمِنًا فِي سِرْبِهِ مُعَاتَى فِي حَسَدِهِ عِنْدَهُ قُوْتُ يَوْمِهِ فَكَأَنَّمَا حِيرَتْ لَهُ الدُّنْيَا رَوَاهُ  
الترمذي)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:*

«*Kimki joni omonda, badanida salomatlik, huzurida kundalik ozuqasi bilan tong ottirgan bo'lsa, go'yo unga dunyoning barchasi jam bo'libdi*»[\[32\]](#).

### **Qarindoshlar bilan aloqalari**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qarindoshlik aloqalariga qanchalik e'tibor berganini sifatlashga til ojizlik qiladi. Chunki, u zot bu bobda bashariyatning eng komili edilar. Hatto, u zotni payg'ambar bo'lishlaridan avval Quraysh kofirlari ham madh etishgan va «Assodiqul-Amiyn» (Rostgo'y va Omonatdor) deb ta'riflashgan, muhtarama onamiz Xadicha roziyallohu anho ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga: «*Siz qarindoshlik aloqalarini qilasiz va to'g'ri so'zlaysiz*», degan edilar.

Mana qarang, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vazifalarning eng oliysi va haqlarning eng buyugini ado etmoqdalar: yetti yoshlarida ayrilgan onalarining qabrini ziyorat qilmoqdalar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qildilar:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ زَارَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَبْرَ أُمِّهِ فَبَكَى وَأَبَكَى مِنْ حَوْلِهِ فَقَالَ اسْتَأْذَنْتُ رَبِّي فِي أَنْ أَسْتَعْفِرَ لَهَا فَلَمْ يُؤْذَنْ لِي وَاسْتَأْذَنْتُهُ فِي أَنْ أَزُورَ قَبْرَهَا فَأُذِنَ لِي فَزُورُوا الْقُبُورَ فَإِنَّهَا تُدَكَّرُ الْمَوْتِ (رواه مسلم)

«*Payg'ambar alayhissalom onalarining qabrini ziyorat qilib o'zlari ham yig'ladilar, yonidagilarni ham yig'latdilar.*

**Co'ngra: «Parvardigorimdan onamga ictig'for co'rashga ruxcat co'ragan edim bunga izn berilmadi. Onamning qabrini ziyorat qilishga ruxcat co'ragan edim, bunga izn berildi. Cizlar ham qabrlarni ziyorat qilinglar, chunki ular o'limni eclatadi»- dedilar».** [\[33\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qarindoshlariga bo'lgan mehri, ularni Islomga da'vat etish, to'g'ri yo'lni ko'rsatish va jahannamdan qutqarish uchun qanchalar tirishganlari va bu yo'lda og'ir mashaqqatlarni ko'targanlari haqida o'ylab ko'ring...

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ لَمَّا أُنْزِلَتْ هَذِهِ آيَةُ ﴿وَأَنْذِرْ عَشِيرَتَكَ الْأَقْرَبِينَ﴾ دَعَا رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فُرَيْشًا فَاجْتَمَعُوا فَعَمَّ وَحَصَّ فَقَالَ يَا بَنِي كَعْبِ بْنِ لُؤَيٍّ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا بَنِي مُرَّةَ بْنِ كَعْبٍ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا بَنِي عَبْدِ شَمْسٍ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا بَنِي عَبْدِ مَنَافٍ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا بَنِي هَاشِمٍ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا بَنِي عَبْدِ الْمُطَّلِبِ أَنْقِدُوا أَنْفُسَكُمْ مِنَ النَّارِ يَا

فَاطِمَةُ أَنْقَذَتِي مِنْ النَّارِ فَإِنِّي لَا أَمْلِكُ لَكُمْ مِنَ اللَّهِ شَيْئًا غَيْرَ أَنَّ لَكُمْ رَحْمًا سَأَبْلُهَا بِبِلَالِهَا (رواه مسلم)

«**Yaqin qarindoshlaringizni (jahannam azobidan) ogohlantiring!**» oyati[34] nozil bo'lganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Quraysh qabilasini chaqirdilar, jamlanishgach, ularga qarata umumiy va xususiy xitoblar qildilar: «**Ey Banu Abdu Shams, ey Banu Ka'b ibn Luay, o'zinglarni jahannamdan qutqaringlar! Ey Banu Murra ibn Ka'b, o'zinglarni jahannamdan qutqaringlar! Ey Banu Abdu Manof, Ey Banu Hoshim, o'zinglarni jahannamdan qutqaringlar! Ey Banu Abdulmuttalib, o'zinglarni jahannamdan qutqaringlar! Ey Fotima, o'zingni jahannamdan qutqar! Men sizlar uchun Alloh huzurida biron narsaga ega emasman, Biroq, o'rtamizda qarindoshlik bo'lib, u bilan sizlarga (dunyoda) aloqa qilaman, xolos**»[35].

Qarang, sevimli payg'ambarimizsollallohu alayhi va sallam amakilari Abu Tolibni Islomga qayta-qayta da'vat qildilar. Hatto, u o'lim to'shagida yotganida ham oldiga kelib da'vat etdilar.

«*Abu Tolib o'lar vaqtida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uning huzuriga kirdilar. Uning oldida Abu Jahl va Abdulloh ibn Abi Umayya bor edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

«**Ey amaki, «La ilaha illalloh» (Allohdan boshqa haq iloh yo'q) deb ayting, bu kalimani Alloh azza va jallaning huzurida siz uchunhujjat qilay**» — dedilar.

*Abu Lahab va Abdulloh ibn Abi Umayya: «Ey Abu Tolib, Abdulmuttalibning millatidan voz kechasanmi?!» - dedilar. U ikkisi gapiraverdirlar, gapiraverdilar va oxiri Abu Tolib ularga: «Men Abdulmuttalibning millatidaman» - dedi».*

*Shunday bo'lsada, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam «Modomiki, menga ta'qiqlangan emas ekan, siz uchun istig'for aytaman» - dedilar. Shunda:*

﴿ مَا كَانَ لِلنَّبِيِّ وَالَّذِينَ آمَنُوا أَنْ يَسْتَغْفِرُوا لِلْمُشْرِكِينَ وَلَوْ كَانُوا أُولِي قُرْبَىٰ مِنْ بَعْدِ مَا تَبَيَّنَ لَهُمْ أَنَّهُمْ أَصْحَابُ الْجَحِيمِ ﴾

«**Payg'ambar va iymon keltirganlarning, jahannam ahlidan ekanligi ma'lum bo'lganidan so'ng qarindoshlari bo'lsada, mushriklar uchun istig'for aytishlari mumkin emasdir**»[36] va

﴿ إِنَّكَ لَا تَهْدِي مَنْ أَحْبَبْتَ وَلَكِنَّ اللَّهَ يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ ﴾

«**Siz yaxshi ko'rgan odamlaringizni to'g'ri yo'lga yo'llay olmaysiz, lekin Alloh O'zi xohlagan kishini hidoyat qilur..»**[37] oyatlari nozil bo'ldi»[38].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yaxshilik qilish uchun Abu Tolibni tiriklik paytida ham ko'p da'vat qilgan, hatto hayotining oxirgi lahzalarida ham Islom diniga

chaqirgan va o'lganidan so'ng istig'for aytgan edilar. Oyat nozil bo'lishi bilan Allohga itoat qildilar-da, mushrik qarindoshlari uchun duo qilishdan to'xtadilar.

Bu - Ummat uchun katta mehrning ko'rinishlaridan, qolaversa, Islom uchun do'stlashish va garchi qarindoshlar bo'lsada, kofir va mushriklardan bezor bo'lish ko'rinishlaridan biridir.

### **Payg'ambaruylarida**

Insoning uyi - go'zal xulqi, odob kamoloti, chiroyli muomalasi va ichki dunyosining sofligini ko'rsatib beradigan haqiqiy makondir. Xonalar va devorlar ortida, hech kim ko'rmaydigan bir yerda o'z quli, xizmatkori yoki ayoli bilan bo'lgan muomalalarida uning tabiatidagi boshqalarga ma'lum bo'lmagan barcha taraflar namoyon bo'ladi.

Biz bu Ummatningpayg'ambari, sarvari va muallimi bo'lganRasululloh sollallohu alayhi va sallamning shunday buyuk maqom va oliy darajada bo'lishlariga qaramay o'z uylarida qanday holatda bo'lganlari haqidagi so'zlarga quloq tutaylik:

Oisha roziyallohu anhodan Rasululloh uyda nima ishlar qilishi haqida so'ralganida: *«Odamlardan biri edilar: kiyimlarini tozalar, echki sog'ar va o'z o'ziga xizmat qilar edilar»* - deb javob bergan edilar.[\[39\]](#)

Darhaqiqat, bu - kamtarlik, kibrsizlik va boshqalarga «yuk» bo'lmaslik namunasidir. Bu - o'rtoqlik va hamkorlikdagi oliyjanoblikdir. Odam bolasining eng sarasi shu ishlarni qilyapdimi-ya?!

Butun olamga Islom nuri taralgan ushbu muborak xonadonda uning sohibi bo'lgan bu ulug' zot qornin to'ydiradigan narsaga ega emas edi!

Nu'mon ibn Bashir roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hayotini esga olar ekan: *«Menpayg'ambaringizning sifatsiz-yomon xurmoldan qornini to'ydiradigan miqdorini topa olmaganini ko'rganman»* - dedi[\[40\]](#).

Oisha roziyallohu anho dedilar: *«Biz - Muhammad sollallohu alayhi va sallamning oilasi bir oylab qozon osmasdan o'tkazardik. Yeydigan narsamiz faqat xurmo va suv edi, xolos»*.[\[41\]](#)

Bu xonadonda Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni toat-ibodat qilishlariga mone'lik qiladigan biron narsa yo'q edi. Shuning uchun ham, «Hayya alas-solat» (Namozga shoshilinglar) «Hayya alal-falah» (Najotga shoshilinglar!) nidosini eshitishlari bilanoq tezda unga ijobat qilib, dunyo ishlarini ortlarida qoldirar edilar!

Asvad ibn Zayd dedilar: *«Men Oisha roziyallohu anhodan: «Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam uylarida nima ish qilar edilar?» — deb so'radim. «Ahlining xizmatlarini qilar, namoz vaqti bo'lsa, namozga chiqar edilar» — deb javob berdilar»*.[\[42\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning farz namozini uyida o‘qiganlari aslo rivoyat qilingan emas. Faqat vafotlaridan oldingi kasalliklarida, qattiq isitmalab, namozga chiqishlari qiyinlashgandagina uylarida o‘qiganlar.

Ummatlariga o‘ta shafqatli va mehribon bo‘lsalarda, namozlarini jamoat bilan masjidlarda o‘qimagan kishilar haqida qattiq so‘z aytdilar:

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَقَدَ نَاسًا فِي بَعْضِ الصَّلَوَاتِ فَقَالَ لَقَدْ هَمَمْتُ أَنْ أَمُرَ رَجُلًا يُصَلِّيَ بِالنَّاسِ ثُمَّ أُخَالِفَ إِلَى رِجَالٍ يَتَخَلَّفُونَ عَنْهَا فَأَمُرَ بِهِمْ فَيُحَرِّقُوا عَلَيْهِمْ بِحُزْمِ الْحَطَبِ بِيُوتَهُمْ ... (رواه مسلم)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayrim kishilar ba'zi namozlarda ko‘rinmaganlarida shunday dedilar:*

**«Amr etsam, namoz o‘qish uchun takbir aytilsa. Keyin bir kishini odamlarga imom bo‘lib namoz o‘qishga buyursam. So‘ngra, men bog‘-bog‘ o‘tin ko‘targan odamlar bilan borib, namozga kelmagan odamlarning uylarini yoqib yuborsam, deb qolaman».**[\[43\]](#)

Bu (farz) namozlarni jamoat bilan o‘qishning o‘ta muhimligidan edi.

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ مَنْ سَمِعَ النَّدَاءَ فَلَمْ يَأْتِهِ فَلَا صَلَاةَ لَهُ إِلَّا مِنْ عُذْرٍ (رواه ابن ماجه)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Azonni eshitib, (jamoatga) kelmagan odamning namozi namoz emasdir, faqat uzri bo‘lsagina joizdir» - dedilar*[\[44\]](#). Uzr esa xatar yoki kasallikdir.

Bugungi kunda masjidlarga chiqmay, xonasalot bo‘lib qolgan «namozxon»lar holiga nima deyish mumkin?! Ularning kasal yoki qo‘rqinchdan bo‘lganuzrlari qani?!!

### **Turmushdagi xususiyatlari**

Insonning yurish-turishi uning aqlining mezoni va qalbining kalitidir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni eng yaxshi biladigan, holatlarini eng yaxshi sifatlab beradigan zot – ummul mo‘minin Oisha roziyallohu anhodirlar. Chunki u zot Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga uyqularida va bedorliklarida, betoblik va salomatliklarida, xursandlik va mahzun holatlarida hamisha hamroh edilar.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yomon ishlarni qiluvchi, hayosiz soʻzlarni soʻzlaguvchi, bozorlarda shovqin qiluvchi emas edilar. Yomonlikkayomonlik qaytarmas, balki avf qilar va kechirar edilar»*[\[45\]](#).

Butun olamga rahmat qilib yuborilgan ul zoti sharifning xislatlaridan baʼzisini bizga sevimli nabiralari Husayn roziyallohu anhu sifatlab beradilar:

*«Otamdan paygʻambar sollallohu alayhi va sallamning suhbatdoshlari bilan boʻlgan munosabatlari haqida soʻraganimda, aytdilarki:*

*«Paygʻambar sollallohu alayhi va sallam doimo quvnoq, muloyim va goʻzal axloqli zot edilar.*

*Ul zot qoʻpol va baqiroqemas, birovlarning ayblarini izlovchi emas edilar.*

*Yoqtirmagan narsalariga eʼtiborsiz qarar, umidvor kimsani noumid qilmas edilar.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uch narsa: riyokorlik, sergaplik va foydasiz narsalarni tark etgan edi.*

*Odamlarni ham uch holatda qoʻygan: biron bir kimsani ayblamas, mazammat qilmas yoki uning sirlarini bilishga intilmas edilar.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam savobiniumid qilgan soʻznigina soʻzlar, gapirganlarida sahobalar boshlarida qush qoʻnib turgandek, jim oʻtirishar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam soʻzlarini tugatganlaridan keyingina gapirar edilar.*

*Sahobalar ul zotning oldida bir-birlari bilan gap talashmas, birlari gapirsa, boshqalari to u gapini tugatguncha quloq solishar edi.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam birinchi boʻlib gapira boshlagan sahobaning soʻzini tinglar, sahobalar kulgan narsalarga kular, ajablangan narsalaridan ajablanar, biror notanish odamning qoʻpol soʻzlari va nooʻrin talablariga sabr qilar, buni koʻrgan sahobalar notanish odamni chekkaga olib chiqib ketishni xohlab qoʻllaridan ushlasalar:*

***«Ehtiyojini soʻragan odamni koʻrsangiz, unga koʻmakchi boʻlinglar!»*** –der edilar.

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam loyiq boʻlgan odamlardangina maqtozni qabul qilar, hech kimning soʻzlarini tugatmaguncha boʻlmas, haddidan oshsagina uning soʻzini qaytariq yoki oʻrinlaridan turib ketish bilan boʻlar edilar»*[\[46\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xislatlari haqida birma-bir fikr yuritib koʻring va undan oʻzingiz uchun foyda olishga harakat qiling! Chunki, ular yaxshilik majmuasidir.



Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xislatlaridan biri - suhbatdoshlariga din ahkomlarini o'rgatishdir.

#### **Ul zotning so'z va ta'limlaridan namunalar:**

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ قَالَ قَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مَنْ مَاتَ وَهُوَ يَدْعُو مِنْ دُونِ اللَّهِ نَدَاً دَخَلَ النَّارَ (رواه البخاري)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

**«Kimki, Allohdan boshqasini (Allohga) teng qilib unga ibodat qilgan holda vafot etsa, jahannamga kiradi»[\[47\]](#).**

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَمْرٍو رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ الْمُسْلِمُ مَنْ سَلِمَ الْمُسْلِمُونَ مِنْ لِسَانِهِ وَيَدِهِ وَالْمُهَاجِرُ مَنْ هَجَرَ مَا نَهَى اللَّهُ عَنْهُ (رواه البخاري)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

**«Haqiqiy musulmon musulmonlar uning qo'li va tilidan salomat bo'lgan kishidir, muhojir esa Alloh qaytargan narsalarni tark etgan kishidir»[\[48\]](#).**

Burayda roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ بُرَيْدَةَ عَنْ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ بَشَّرَ الْمَشَائِينَ فِي الظُّلْمِ إِلَى الْمَسَاجِدِ بِالتُّورِ التَّامِّ يَوْمَ الْقِيَامَةِ

(رواه الترمذي وأبو داود)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

**«Zulmatlarda masjidlarga ko'p boruvchi kishilarga Qiyomat kunida beriladigan komil nurdan bashorat beringiz!»[\[49\]](#)**

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَنَسٍ أَنَّ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ جَاهِدُوا الْمُشْرِكِينَ بِأَمْوَالِكُمْ وَأَنْفُسِكُمْ وَاللَّسْتِكُمْ (رواه أبو داود)



Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

«*Mushriklar bilan molingiz, joningiz va tilingiz bilan kurashingiz!*»[\[50\]](#)

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ إِنَّ الْعَبْدَ لَيَتَكَلَّمُ بِالْكَلِمَةِ مَا يَتَّبِعُ مَا فِيهَا  
(يَهْوِي بِهَا فِي النَّارِ أَوْ يَبْعَدُ مَا بَيْنَ الْمَشْرِقِ وَالْمَغْرِبِ) (رواه مسلم)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

«*Banda farqlamasdan (ya'ni, o'ylamasdan) bir so'zni aytadi-da, ana shu so'z sababli jahannamga Mashriq bilan Mag'rib o'rtasidan uzoqroqbo'lgan masofaga tushadi*»[\[51\]](#).

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ قِيلَ يَا رَسُولَ اللَّهِ ادْعُ عَلَى الْمُشْرِكِينَ قَالَ إِيَّيَّ لَمْ أُبْعَثْ لِعَانًا وَإِنَّمَا بُعِثْتُ رَحْمَةً (رواه مسلم)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

«*Men la'natlovchi bo'lib jo'natilmadim, balki, rahmat qilib yuborildim.*»[\[52\]](#)

Umar ibn Xattob roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ سَمِعَ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ يَقُولُ عَلَى الْمُنْبَرِ سَمِعْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ لَا  
تُطْرُقُونِي كَمَا أَطْرَقَ النَّصَارَى ابْنَ مَرْيَمَ فَإِنَّمَا أَنَا عَبْدُهُ فَقُولُوا عَبْدُ اللَّهِ وَرَسُولُهُ (رواه البخاري)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

*Meni nasroniylar Iyso ibn Maryamni haddan ziyod madh etganlaridek madh etmanglar. Men (Allohning) bandasiman, xolos. «Allohning quli va elchisi» denglar - dedilar*[\[53\]](#).

Jundab ibn Abdulloh roziyallohu anhu aytdilar:

حَدَّثَنِي جُنْدَبٌ قَالَ سَمِعْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَبْلَ أَنْ يَمُوتَ بِخَمْسٍ وَهُوَ يَقُولُ إِيَّيَّ أُبْرَأُ إِلَى  
اللَّهِ أَنْ يَكُونَ لِي مِنْكُمْ خَلِيلٌ فَإِنَّ اللَّهَ تَعَالَى قَدْ اتَّخَذَنِي خَلِيلًا كَمَا اتَّخَذَ إِبْرَاهِيمَ خَلِيلًا وَلَوْ كُنْتُ مُتَّخِذًا  
مِنْ أُمَّتِي خَلِيلًا لَاتَّخَذْتُ أَبَا بَكْرٍ خَلِيلًا أَلَا وَإِنَّ مَنْ كَانَ قَبْلَكُمْ كَانُوا يَتَّخِذُونَ قُبُورَ أَنْبِيَائِهِمْ وَصَالِحِيهِمْ  
مَسَاجِدَ أَلَا فَلَا تَتَّخِذُوا الْقُبُورَ مَسَاجِدَ إِيَّيَّ أَنهَاكُمْ عَنْ ذَلِكَ (رواه مسلم)

*«Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o‘limlaridan besh kun avval shu so‘zlarni aytganlarini eshitganman:*

*«Men sizlardanbiringiz menga xalil[54] bo‘lishidan pok ekanligimni Allohga bildiraman. Chunki, u meni ham, Ibrohimni qilgani kabi o‘ziga xalil qilib oldi. Agar ummatim ichidan bironasini xalil qilsaydim, Abu Bakrni xalil qilib olar edim. Ogoh bo‘linglarki, sizlardan avval yashab o‘tgan xalqlarpayg‘ambarlarining qabrlarini sajdagoh-masjid qilib olar edilar. Qabrlarni sajdagoh-masjid qilib olmanglar! Mensizlarni bundan qaytaraman!»[55]*

Shuning uchun ham ichida bir yoki bir necha qabrlar bo‘lgan masjidlarda namoz o‘qish mumkin emasdir.

### **Qizlariga muomalalari**

Johiliyat davrida qiz bolaning tug‘ilishi nafaqat ota-onasi, oilasi va qabilasi uchun ham motam kuni bo‘lar edi. Bu jamiyatdagi holat qizlarini or-nomusdan qo‘rqib, tiriklayin ko‘mib yuborish darajasiga yetdi. Tiriklay ko‘mish o‘ta qabih shaklda bo‘lar, unda na rahm va na muhabbatga o‘rin bor edi. Xa, qiz bolani tuproqqa tiriklayin ko‘milar edi! Ular bu jinoyatda anchagina «mahoratli» edilar.

Ulardan ba‘zilari qiz ko‘radigan bo‘lsa olti yoshga kirguniga qadar tek qo‘yar, so‘ngra ayoliga: «Qizingga chiroyli kiyimlarni kiydirib xushbo‘yla, men uni amakilarining oldiga olib boraman» — derdi-da, qizni avvaldan u uchun sahroda qazib qo‘ygan chuqurga olib borar va: «Qizim, shu chuqurga bir qara» — der edi. Qiz qarayotgan paytda chuqurga turtib tushirar va ustidan tuproqni vahshiylarcha tortar edi.

Mana shu johiliy jamiyat ichida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayolni ona, turmush o‘rtoq, opa-singil va amma-xola sifatida mukarram qilgan buyuk din bilan maydonga chiqdilar. Qizlari ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning muhabbatiga sazovor bo‘ldilar.

Qizlari Fotima roziyallohu anho Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kirganida ul zot o‘rinlaridan turib, uning qo‘llaridan ushlab o‘par va o‘zlarining o‘rinlariga o‘tkazar edilar. Fotima roziyallohu anho ham huzuriga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kirsalar o‘rnidan turib ul zotning qo‘llaridan o‘par va joyiga o‘tkazar edi[56].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qizlarini yaxshi ko‘rib, ularga marhamatlar qilgan bo‘lsalar-da, Alloh ta‘olo «**Abu Lahabning qo‘li qurisin!**»[57] oyatlarini nozil qilganidan so‘ng Abu Lahabning ikki o‘g‘li - Utba va Utaybalardan Ummi Gulsum va Ruqayya ismli qizlarining taloq olishlariga sabr va Allohdan ajr umid qilib rozi bo‘ldilar.

Biror daqiqa bo‘lsin, da‘vatni to‘xtatish yoki orqaga chekinishga rozi bo‘lmadilar. Quraysh Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga tahdidlar qilganidan so‘ng qizlari

taloq qilindi, Biroq, ul zot sabr va matonat bilan Islom diniga chaqirishda davom etdilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o‘z qizlarini qanday ochiq yuz bilan kutib olishlari va go‘zal muomalada bo‘lishlariga onamiz Oisha roziyallohu anho rivoyat qilgan ushbu hadis ham yaqqol namuna bo‘ladi:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ كُنَّ أَرْوَاحَ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ عِنْدَهُ لَمْ يُعَادِرْ مِنْهُنَّ وَاحِدَةً فَأَقْبَلَتْ فَاطِمَةُ تَمْشِي مَا تُحْطِي مِشْيَتِهَا مِنْ مِشْيَةِ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ شَيْئًا فَلَمَّا رَأَاهَا رَحَبَ بِهَا فَقَالَ مَرْحَبًا بِابْنَتِي ثُمَّ أَجْلَسَهَا عَنْ يَمِينِهِ... (رواه مسلم)

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlarida ayollari bor edi. Fotima roziyallohu anho kirib keldilar. Uning yurishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yurishlaridan hech farq qilmas edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni ko‘rishlari bilanoq qarshiladilar va: «Qizim, xush keldingiz!» - dedilar, so‘ngra o‘ng taraflariga o‘tkazdilar..».*[\[58\]](#)

Qizlariga bo‘lgan mehru muhabbati tufayli ularni ziyorat qilar, ahvollarini so‘roqlar va muammolarini hal etar edilar.

Fotima roziyallohu anho bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga tegirmon ishlatish oqibatida qo‘llarining qabarganini shikoyat qilib, xizmatkor berishini so‘ramoqchi bo‘lib keldilar. Biroq, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni topmadilar. Shunda shikoyatlarini Oisha roziyallohu anhoga aytdilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kelganlarida Oisha roziyallohu anho xabarni yetkazdilar.

...Aliy roziyallohu anhu aytadilar:

فَجَاءَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِلَيْنَا وَقَدْ أَخَذْنَا مَضَاجِعَنَا فَذَهَبْنَا نَقُومُ فَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ عَلَى مَكَانِكُمْ فَقَعَدَ بَيْنَنَا حَتَّى وَجَدْتُ بَرْدَ قَدَمِهِ عَلَى صَدْرِي ثُمَّ قَالَ أَلَا أَعَلَّمَكُمَا خَيْرًا مِمَّا سَأَلْتُمَا إِذَا أَخَذْتُمَا مَضَاجِعَكُمَا أَنْ تُكَبِّرَا اللَّهَ أَرْبَعًا وَثَلَاثِينَ وَتُسَبِّحَاهُ ثَلَاثًا وَثَلَاثِينَ وَتَحْمَدَاهُ ثَلَاثًا وَثَلَاثِينَ فَهُوَ خَيْرٌ لَكُمَا مِنْ خَادِمٍ (رواه مسلم)

«*Yotmoqchi bo‘lib joyimizga kirib turgan paytimizda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam (izn so‘rab) kirib keldilar. Biz o‘rnimizdan turmoqchi bo‘lgandik: «Joyingizdan qimirlamanglar!» — dedilar-da, o‘rtamizga kelib o‘tirdilar. Men ko‘ragimda u zotning oyoqlarining sovuqligini his etdim. So‘ngra dedilar: «Men sizlarni so‘ragan narsangizdan ko‘ra yaxshiroq bo‘lgan narsaga yo‘llab qo‘ymaymi? Agar ko‘rpangizga o‘ransangiz yoki o‘rningizga yotsangiz o‘ttiz to‘rt marta takbir (Alloh akbar), o‘ttiz uch marta tasbeh (Subxanalloh) va o‘ttiz uch marta hamd (Alhamdulillah) aytingiz! Mana shu sizlarga xizmatkordan ko‘ra yaxshiroqdir»*[\[59\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sabru-chidamlarida va motam tutmasliklarida biz uchun chiroyli namuna bordir. Hayotlik davrlarida Fotima

roziyallohu anhudan boshqa barcha o'g'il-qizlari vafot etdilar. Shunday bo'lsa-da, hech biri uchun motam tutib, qo'llari bilan yuzlariga urmadilar, kiyimlarini yirtmadilar, ta'ziyachilar uchun o'rin hozirlab, ziyofatlar qilmadilar. Balki, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Allohning qazosiga rozi, sabrli va savobdan umidvor bo'ldilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam mahzunlarning g'am-qayg'usini ketkazuvchi va musibatlangan odamga tasalli beruvchi katta vasiyat va ulug' hadislarni tashlab ketdilar.

Ulardan biri Ummi Salama onamiz rivoyat qilgan hadisdir:

عَنْ أُمِّ سَلَمَةَ أَنَّهَا قَالَتْ سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ مَا مِنْ مُسْلِمٍ تُصِيبُهُ مُصِيبَةٌ فَيَقُولُ مَا أَمَرَهُ اللَّهُ ﴿إِنَّا لِلَّهِ وَإِنَّا إِلَيْهِ رَاغِبُونَ﴾ اللَّهُمَّ أَحْزِنِي فِي مُصِيبَتِي وَأَخْلِفْ لِي خَيْرًا مِنْهَا إِلَّا أَخْلَفَ اللَّهُ لَهُ خَيْرًا مِنْهَا (رواه مسلم)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:*

***Qaysi bir musulmonga biron musibat yetganda Alloh buyurganidek:***

***«Inna-a lillahi va inna-a ilayhi rojiuvn, Allohmma-'jurniy fiy musibatiy, va axlif liy xoyron minha»(Biz Allohnikimiz va albatta Allohga qaytuvchimiz, Allohim, boshimga tushgan musibat uchun menga ajru-savoblar ato et va menga bu musibatim badaliga undan ko'ra yaxshiroqnarsani ber) degan so'zlarni aytsa, Alloh ta'olo undan xayrliroqnarsani badal qiladi.***[\[60\]](#)

**Ahli-ayolga munosabatlari**

Oila qo'rg'onida ayol sokinlik va uns-yaqinlik alomati bo'lib qoladi.

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَمْرٍو أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ الدُّنْيَا مَتَاعٌ وَخَيْرُ مَتَاعِ الدُّنْيَا الْمَرْأَةُ الصَّالِحَةُ (رواه مسلم)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

***«Butun dunyo (insonga) berilgan ne'matdir va dunyo matolarining eng yaxshisi soliha ayoldir»,- deb marhamat qildilar.***[\[61\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam go'zal axloq va xush muomala sohibi bo'lganlari uchun mo'aminlar onasi Oisha roziyallohu anhoning ismini qisqartib, unga sevinchli xabar berib chaqirganini ko'ramiz!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

إِنَّ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَوْمًا يَا عَائِشَ هَذَا جِبْرِيْلُ يُقْرِئُكَ السَّلَامَ (رواه البخاري)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kunlarning birida: «**Ey, Oish, Jibriyl sizga salom aytyapti!**» - dedilar[62].

Axloqan eng barkamol va eng oliymaqom zot – Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam ayollarining hissiy va ruhiy rag‘batlarini bilish hamda ularga nisbatan chiroyli munosabatda bo‘lishning go‘zal namunasini ko‘rsatdilar!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

«Men hayz ko‘rgan kunlarimda (biron narsani) ichib, (kosani) Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga uzatar edim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam lablarimni qo‘ygan yerga lablarini qo‘yib ichar edilar. Ustuxondagi go‘shdan tishlar edim, keyin payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam ustuxonni olardilar va lablarimni qo‘ygan yerga lablarini qo‘yib yer edilar»[63].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam munofiqlar va sharqshunoslar uydirmayu botil da’volar bilan ayblaganlaridek emas, balki, ayolga nisbatan erning eng go‘zal va yuksak munosabatini o‘zlarida ko‘rsatar edilar.

Oisha roziyallohu anho deydilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayollaridan birini o‘par va tahorat qilmay namozga chiqar edilar»[64].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ko‘p o‘rinlarda o‘z huzurlarida ayolning oliy maqomi va yuksak martabasi borligini ko‘rsatdilar.

Misol uchun, Amr ibn Osroziyallohu anhuning savoliga javob berib, ayolga bo‘lgan muhabbat hartomonlama yetuk, to‘g‘ri bo‘lgan erkak uchun xijolatli emasligini bildirdilar!

Uning: «Siz uchun eng sevimli odam kim?» - degan savoliga: «**Oisha**» - deb javob berdilar[65].

Hayotida oilaviy baxt-saodatga erishishni istagan odam, Oisha roziyallohu anho naql qilgan hadisva Oisha roziyallohu anhoga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qanday muomala qilgani haqida tafakkur qilib ko‘rsin!

Oisha roziyallohu anho:

«Men va Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir idishdan g‘usl qilar va unga birin ketin qo‘l solar edik» - dedilar[66].

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ayollari qalbiga sevinch kiritish vaunga baxtiyorlikni his ettirish uchun harbir muboh fursatni g‘animat bilar edilar!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ خَرَجْتُ مَعَ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فِي بَعْضِ أَسْفَارِهِ وَأَنَا جَارِيَةٌ لَمْ أَحْمِلِ اللَّحْمَ  
وَلَمْ أَبْدُنْ فَقَالَ لِلنَّاسِ تَقَدَّمُوا فَتَقَدَّمُوا ثُمَّ قَالَ لِي تَعَالَى حَتَّى أُسَابِقَكَ فَسَابَقْتُهُ فَسَبَقْتُهُ فَسَكَتَ عَنِّي حَتَّى  
إِذَا حَمَلْتُ اللَّحْمَ وَبَدُنْتُ وَنَسِيتُ خَرَجْتُ مَعَهُ فِي بَعْضِ أَسْفَارِهِ فَقَالَ لِلنَّاسِ تَقَدَّمُوا فَتَقَدَّمُوا ثُمَّ قَالَ  
تَعَالَى حَتَّى أُسَابِقَكَ فَسَابَقْتُهُ فَسَبَقْتَنِي فَجَعَلَ يَضْحَكُ وَهُوَ يَقُولُ هَذِهِ بِتِلْكَ

«Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga safarlarining birida yo‘ldosh bo‘ldim. Men u paytlar nozik, hali to‘lishmagan edim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam odamlarga: «**Sizlar oldinga ketinglar!**» - dedilar. Odamlar ilgarilab ketdilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga: «**Keling, chopishamiz**» - dedilar. Men u kishi bilan chopishdim va o‘zib ketdim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam indamay qo‘yaverdilar. (Vaqt o‘tib) men ham to‘lishdim. Yana safarlarining birida hamroh bo‘ldim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam odamlarga: «**Sizlar oldinga ketinglar!**»- deb menga: «**Keling, chopish musobaqasi o‘ynaylik**» - dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam mendan o‘zib ketdilar va kulib: «**Bunisi avvalgisi bilan teng bo‘ldi!**» –dedilar[67].

Darhaqiqat, bu latif erkalash va qattiq ehtimom berishdir. Odamlarni oldinga ketishga buyurib, ayoli bilan musobaqalashish va uning diliga quvonch kiritish... Qarang, Ul Zot o‘tgan erkalashga yangisini ham qo‘shib: «Bunisi avvalgisi bilan teng bo‘ldi!» — deb qo‘ydilar.

Allohning keng yerida kezib, bugungi kunda unda yashayotgan aslzodalarning hayotlariga nazar tashlagan odam, payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamning qilgan ishlaridan hayratga tushadi. Holbuki, ul Zot payg‘ambar, muzaffar sarkarda, Quraysh va Bani Hoshimning aslzodasi. Zafar kunlarining birida ko‘p sonli lashkarni boshqarib, g‘olib bo‘lib qaytdilar. Shunday bo‘lishiga qaramay bu zot ayollari - mo‘minlarning onalariga mehrlil va ularga muloyimdirlar!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Xaybar jangidan qaytar ekanlar, Sofiyya binti Xuyayga uylandilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Onamiz Sofiya roziyallohu anho minadigan tuyaning atrofiga gazmol aylantirib o‘rab, onamizni to‘sardilar. So‘ngra bir tizzalariga cho‘kka tushardilar, Sofiya onamiz ul Zotning tizzalariga oyoqlarini qo‘yib, tuyaga minardilar.[68]

Bu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning kamtarliklariga dalolat qiladigan ta’sirli holat edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muzaffar sarkarda va payg‘ambar bo‘lishlariga qaramay, ayoli uchun tizzasini yerga qo‘yish, unga kamtarlik qilish va unga yordam berish kishining obro‘sigga putur yetkazmasligini ummatga ta’lim berdilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ummatiga qilgan vasiyatlaridan biri shudir:

Amr ibn al-Ahvas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ سُلَيْمَانَ بْنِ عَمْرٍو بْنِ الْأَخْوَصِ قَالَ حَدَّثَنِي أَبِي قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَلَا وَاسْتَوْصُوا بِالنِّسَاءِ خَيْرًا ... (رواه الترمذي)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

**«Ogoh bo‘linglar, ayollarga doimo yaxshi munosabatda bo‘linglar!»**[\[69\]](#)

### **Mo‘minlarning onalari**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o‘n bir ayolga uylandilar. Ular «mo‘minlarning onalari» nomiga musharraf bo‘ldilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafot etganlaridato‘qqizta ayollaribor edi. Bu muhtarama ayollar qo‘lga kiritgan sharaf va martabalar na qadar buyuk! Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yoshi katta ayolga ham, beva ayolga ham, taloq qo‘yilgan ayolga ham, zaifaga ham uylanganlar. Ular ichida faqat Oisha onamizgina bokira edilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ummahotul-mu‘miniynga uylanib, ularning barchasini bir yerga jam qildilar va adolat va taqsimotda namuna bo‘ldilar.

Oisha roziyallohu anhodedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam safarga chiqmoqchi bo‘lsalar ayollari o‘rtasida qur‘a tashlar edilar. Kimning qur‘asi chiqsa, uni o‘zlari bilan birga safarga olib chiqar edilar. Harbir ayoli uchun bir kecha va kunduzni belgilar edilar»*[\[70\]](#).

Anas ibn Molik roziyallohu anhu rivoyat qilgan ushbu hadis adolatning yuksak namunasini ifodalaydi:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning to‘qqizta ayollari bor edi. Ular o‘rtasida birga bo‘lishni taqsim qilsalar, birinchi ayolga to‘qqizinchi kuni navbat kelar edi. Ayollar haroqshom navbati kelgan ayolning xonasida to‘planishar edi. Bir oqshom Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Oisha roziyallohu anhoneing xonasida edilar. Zaynab roziyallohu anho kirib kelganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga qo‘llarini uzatdilar. Oisha roziyallohu anho: «U Zaynab!» - dedilar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qo‘llarini tortib oldilar»*[\[71\]](#).

Payg‘ambarlik nuri porlagan ushbu xonadon, Alloh ta’oloningpayg‘ambariga bergan tavfiqi bo‘lmasa, bu darajaga yeta olmasdi.

Qarang, payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam Robbiga so‘zda va amalda shukr qilmoqdalar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ayollarini ibodat qilishga rag‘batlantirar, Alloh ta’oloning amriga itoat etish uchun ularga yordamchi bo‘lar edilar:

(وَأْمُرْ أَهْلَكَ بِالصَّلَاةِ وَاصْطَبِرْ عَلَيْهَا لَا تَسْأَلْكَ رِزْقًا نَحْنُ نَرْزُقُكَ وَالْعَاقِبَةُ لِلتَّقْوَى)

**«Ahlingizni namozga buyuring va o‘zingiz hamnamoz (ni ado etish)da sabrli bo‘ling! Biz Sizdan rizq so‘ramaymiz, (bil‘aks) Sizga rizqni Biz beramiz. Chiroyli oqibat taqvodorlar uchundir»**[\[72\]](#)



Oisha roziyallohu anhododilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam (tahajjud) namoz(ini) o‘qir, men esa Ularning joylarida ko‘ndalang bo‘lib, uzanib yotar edim. Agar vitr o‘qimoqchi bo‘lsalar, meni uyg‘otar edilar»*[\[73\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qiyomul-laylga[\[74\]](#) va er-xotinning bu ishda bir-birlariga yordamchi bo‘lishlariga targ‘ib qildilar va buning yo‘lini ham ko‘rsatib berdilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ رَحِمَ اللَّهُ رَجُلًا قَامَ مِنَ اللَّيْلِ فَصَلَّى وَأَيَّظَ امْرَأَتَهُ فَصَلَّتْ فَإِنْ أَبَتْ رَشَّ فِي وَجْهِهَا الْمَاءَ رَحِمَ اللَّهُ امْرَأَةً قَامَتْ مِنَ اللَّيْلِ فَصَلَّتْ وَأَيَّظَتْ زَوْجَهَا فَصَلَّى فَإِنْ أَبِي رَشَّتْ فِي وَجْهِهِ الْمَاءَ (رواه ابن ماجه)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:*

***«Allohning rahmati bo‘lsin bir kishiga-ki, u kechasi turib namoz o‘qiydi va ayolini ham namozga uyg‘otadi. Agar turishdan bosh tortsa, yuziga suv sepadi. Allohning rahmati bo‘lsin bir ayolga-ki, u kechasi turib namoz o‘qiydi va erini ham namozga uyg‘otadi. Agar turishdan bosh tortsa, yuziga suv sepadi»***[\[75\]](#)

Musulmon kishi ichining sof va tozaligini mukammal qilish uchun tashqi ko‘rinishiga ham e‘tibor berishi, uning kamolati va dinida mahkamligining alomatidir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qalbi pok, badani toza va xushbo‘y, misvok[\[76\]](#) tutishni yaxshi ko‘rar va bunga buyurar edilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لَوْلَا أَنْ أَشُقَّ عَلَى أُمَّتِي لِامْرَأَتِهِمْ بِالسَّوَاكِ عِنْدَ كُلِّ صَلَاةٍ (رواه أحمد)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

***«Ummatimgaog‘ir bo‘lmaganida edi, ularni harbir namozdan avval misvok qilishga buyurar edim»***[\[77\]](#)

Huzayfaroziyallohu anhudodilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uyqudan uyg‘onganlarida og‘izlarini misvok bilan tozalar edilar»*[\[78\]](#).

Shurayh ibn Honiy Oisha roziyallohu anhodan: *«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uyga kirganlarida eng avval nima qilar edilar?»*deb so‘raganida *«Misvok ishlatar edilar»* - deb javob berdilar. [\[79\]](#)

Abu Molik al-Ash‘ariy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:



عَنْ أَبِي مَالِكٍ الْأَشْعَرِيِّ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِذَا وَلَجَ الرَّجُلُ بَيْتَهُ فَابْتِئِنِ اللَّهُمَّ إِنِّي أَسْأَلُكَ خَيْرَ الْمَوْلَجِ وَخَيْرَ الْمَخْرَجِ بِسْمِ اللَّهِ وَلَجْنَا وَبِسْمِ اللَّهِ خَرَجْنَا وَعَلَى اللَّهِ رَبَّنَا تُوكَلْنَا ثُمَّ لِيُسَلِّمْ عَلَيَّ أَهْلِهِ (رواه أبو داود)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

**Kishi uyiga kirayotganida:** «*Allohumma inniy as'aluka xoyrol mavlaji va xoyrol maxroji, bismillahi valajna, va bismillahi xarajna, va alallohi robbina tavakkalna*» (Ey Alloh, men Sendan xayrli holda kirib, xayrli holda chiqishni so'rayman. Allohning ismi bilan kirdik, Allohning ismi bilan chiqdik va Robbimiz Allohga tavakkul qildik) **desin, so'ngra ahliga salom bersin.** [80]

Musulmon do'stim, uyingizga ozoda holatda, salom bilan kirib, oila a'zolaringizni xursand qiling!

Ularni malomat, dashnom va ayblash bilan kamsituvchilardan bo'lmang!

### **Hazillari**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ummat, qo'shin, oila a'zolari, vahiy, ibodat tashvishlari bilan mashg'ul bo'lar, Ul zot uchun bulardan boshqa tashvishlar ham kam emasdi. Shunday bo'lsa-da, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam haqdorlarning harbiriga o'z haqqini berdilar va birining hisobiga boshqasiga zarar bermadilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ko'p mashg'ul bo'lishlariga qaramay qalblarida bolalar uchun ham alohida bir o'rin ajratgan edilar. Ul zot kattalar bilan hazillashganlaridek, ba'zida bolalarni ham erkalatib, ular bilan hazillashar, qalblarigasevinch ulashar edilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ عَنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَنَّهُ قَالَ إِنِّي لَا أَقُولُ إِلَّا حَقًّا قَالَ بَعْضُ أَصْحَابِهِ فَإِنَّكَ تُدَاعِبُنَا يَا رَسُولَ اللَّهِ فَقَالَ إِنِّي لَا أَقُولُ إِلَّا حَقًّا (رواه أحمد)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «**Men faqat haqiqatni aytaman**» - dedilar.

Shunda sahobalar: «*Yo Rasululloh, siz biz bilan hazillashasiz-ku*» - deganlarida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «**Ha, biroq, men faqat haqiqatni aytaman**» - dedilar» [81].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hazillaridan biri Anas ibn Molik roziyallohu anhu rivoyat qilgan ushbu hadisda keltiriladi:

عَنْ أَنَسٍ قَالَ قَالَ لِي رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَا دَا الْأَدْنَيْنِ (رواه أبو داود)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga: «**Hoy, ikki quloqli!**» - deb xitob qildilar» [82].

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَنَسٍ أَنَّ ابْنَ لَأْمٍ سَلِمَ صَغِيرًا كَانَ يُقَالُ لَهُ أَبُو عُمَيْرٍ وَكَانَ لَهُ نُعَيْرٌ وَكَانَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِذَا دَخَلَ عَلَيْهِ ضَاكِحًا فَرَأَهُ حَزِينًا فَقَالَ مَا بَالُ أَبِي عُمَيْرِ قَالُوا يَا رَسُولَ اللَّهِ مَاتَ نُعَيْرُهُ قَالَ فَجَعَلَ يَقُولُ يَا أَبَا عُمَيْرِ مَا فَعَلَ النُّعَيْرُ (رواه أحمد)

*Ummu Sulaymning Abu Umayr degan o'g'li bor edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularnikiga kelgan paytlarida ko'pincha u bilan hazillashar edilar. Kunlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularnikiga kirdilar, bolaning mahzun ekanini ko'rib: «Abu Umayrga nima bo'ldi?» – dedilar.*

«Ey Rasululloh, uning qushchasi - nug'ayr o'lib qoldi»- dedilar. Shunda:

«YO Abo Umayr,

*Mo fa'alan-Nug'ayr»*

*(Ey Abu Umayr, na bo'ldi Nug'ayr)» - deb xitob qila boshladilar. [83]*

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kattalar bilan ham hazillashar edilar. U hazillardan birini Anas roziyallohu anhu quyidagicha rivoyat qiladi:

*«Zohir ibn Harom ismli a'robiiy bor edi. O'zi ko'rimsiz bo'lsada, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni yaxshi ko'rar edilar. Kunlarning birida Zohir matolarini sotar ekan, orqasidan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam keldilar-da, uni mahkam quchoqlab oldilar. Zohir quchoqlagan odamning kim ekanini ko'rolmas edi. Shuning uchun ham: «Qo'yib yubor, kimsan?» - dedi. Boshini burib qaragach, u Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ekanligini bildi va orqasini Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ko'kraklariga yana ham yopishtira boshladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bo'lsalar: «Bu qulni kim sotib oladi?» - derdilar. Zohir: «Yo Rasululloh, Alloh nomiga ont ichib aytamanki, agar meni sotmoqchi bo'lsangiz men bu bozorda kasodman!» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Lekin sen Allohning huzurida qimmatlisan!» - dedilar. [84]*

Bu muomala Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning naqadar oliyjanob va oliyhimmat zot ekanliklaridan nishonadir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'z oila a'zolari va yon-atrofdagilar bilan ochiq chehra bo'lishlariga qaramay, ul zotning kulishlari tabassumdan o'tmas edi.

Oisha roziyallohu anhoaytadilar:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ مَا رَأَيْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مُسْتَجْمِعًا قَطُّ ضَاحِكًا حَتَّى أَرَى مِنْهُ لَهَوَاتِهِ إِنَّمَا كَانَ يَتَّبَسَّمُ (رواه البخاري)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni tanglaylari ko'rinadigan darajada (og'izlarini) ochib kulganlarini ko'rmadim. U zot faqat tabassum qilargan edi» [85].*

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ochiq yuzli va xushmuomalali bo'lishlariga qaramay, Alloh harom qilgan amallar sodir bo'lgan payt yuzlari (g'azabdan) o'zgarar edi.

Oisha roziyallohu anhododilar:

عَنْ عَائِشَةَ تَقُولُ دَخَلَ عَلَيَّ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَقَدْ سَتَرْتُ سَهْوَةً لِي بِقِرَامٍ فِيهِ تَمَائِيلٌ فَلَمَّا رَأَهُ هَتَّأَهُ وَتَلَوْنَ وَجْهَهُ وَقَالَ يَا عَائِشَةُ أَشَدُّ النَّاسِ عَذَابًا عِنْدَ اللَّهِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ الَّذِينَ يُضَاهَوْنَ بِخَلْقِ اللَّهِ ... (رواه مسلم)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam safardan qaytdilar. Men tokchamni rasmlar chizilgan bir parda bilanto 'sibqo' ygan edim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni ko'rganlari on yirtib tashladilar va yuzlari qizarib: «**Hoy Oisha, Qiyomat kuni Allohning huzurida odamlarning eng ashaddiy azobga giriftor bo'ladiganlari Allohning maxluqotlariga o'xshagan narsalarni yaratmoqchi bo'lgan kimsalardir**» -dedilar[86].

Bu hadis jonzotlar tasvirlangan suratlarning uylarda saqlanishini harom qilmoqda. Xususan, devorlarga suratlar osish, uying burchaklariga, tokchalarga haykallar qo'yish haromdir. Bundan tashqari, bular rahmat farishtalarining uyga kirishiga to'sqinlik qiladi.

### Uyqulari

Abu Hurayra roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ushbu hadisni rivoyat qiladi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ إِذَا أَوَى أَحَدُكُمْ إِلَى فِرَاشِهِ فَلْيَأْخُذْ دَاخِلَهُ إِزَارَهُ فَلْيَنْفُضْ بِهَا فِرَاشَهُ وَلْيُسِّمِ اللَّهَ فَإِنَّهُ لَا يَعْلَمُ مَا خَلْفَهُ بَعْدَهُ عَلَى فِرَاشِهِ إِذَا أَرَادَ أَنْ يَضْطَجِعَ فَلْيَضْطَجِعْ عَلَى شِقِّهِ الْأَيْمَنِ وَلْيَقُلْ سُبْحَانَكَ اللَّهُمَّ رَبِّي بِكَ وَضَعْتُ جَنِّي وَبِكَ أَرْفَعُهُ إِنْ أَمْسَكَتَ نَفْسِي فَاعْفِرْ لَهَا وَإِنْ أَرْسَلْتَهَا فَاحْفَظْهَا بِمَا تَحْفَظُ بِهِ عِبَادَكَ الصَّالِحِينَ وَحَدَّثَنَا أَبُو كُرَيْبٍ حَدَّثَنَا عَبْدُهُ عَنْ عُبَيْدِ اللَّهِ بْنِ عُمَرَ بِهِذَا الْإِسْنَادِ وَقَالَ ثُمَّ لِيُقَلِّ بِاسْمِكَ رَبِّي وَضَعْتُ جَنِّي فَإِنْ أَحْيَيْتَ نَفْسِي فَارْحَمْهَا

«Sizlardan biringiz o'rniga yotsa, kiyimining bir tarafi bilan joyini (supurgannoma) qoqsin, so'ngra: «**Bismillah**» desin. Chunki u, o'zidan avval joyiga kirib olgan narsalarni bilmaydi. Agar yotmoqchi bo'lsa, o'ng tarafiga yonboshlasin va: «**Subhanaka Allohumma robbiy, bika vazo'tu janbiy va bika arfa'uhu. In amsakta nafsiy fag'fir laha va in arsaltaha fahfazha-a bima-a tahfazu bihi ibadakas-solihiyin**» (Allohim, men Seni mushriklar sifatlayotgan sifatlardan poklayman! Robbim Sening yordaming bilan yonboshladim va Sening yordaming bilan (boshimni) ko'taraman. Agar mening ruhimni olsang, uni kechir! Agar ruhimni qo'yib yuborsang, uni solih bandalaringni himoya qilgandek (o'z panohingda) saqla!) - deb aytsin»[87].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning harbir musulmon erkak va ayolga qilgan tavsiyasi quyidagicha edi:

عَنْ الْبَرَاءِ بْنِ عَازِبٍ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ إِذَا أَخَذْتَ مَضْجَعَكَ فَتَوَضَّأْ وَضُوءَكَ لِلصَّلَاةِ ثُمَّ اضْطَجِعْ عَلَى شِقِّكَ الْأَيْمَنِ... (رواه مسلم)

«**Joyingga yotmoqchi bo'lsang namozga qilganingdek tahorat qil va o'ng tarafingga yonboshla!..**».[88]

Oisha roziyallohu anho dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam harkecha o‘rinlariga yotar ekanlar, ikki kaftlarini birlashtirib «Qul xuvallohu ahad», «Qul auzu birobbil falaq», «Qul auzu birobbinnas» suralarini o‘qib dam solar, keyin kaftlarini boshlaridan boshlab, badanlaridan qo‘llari yetgan yergacha, old taraflariga uch marta surar edilar»[\[89\]](#).

Anas ibn Molik roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسٍ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ كَانَ إِذَا أَوَى إِلَى فِرَاشِهِ قَالَ الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَطْعَمَنَا وَسَقَانَا وَكَفَانَا وَأَوَانَا فَكَمْ مِمَّنْ لَا كَافِيَ لَهُ وَلَا مُؤْوِي (رواه مسلم)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o‘rinlariga yotar ekanlar:

«Bizni yedirgan, ichirgan, bizga kifoya qilib, joy bergan Allohga hamdlar bo‘lsin. Qancha – qancha insonlar borki, ularning kifoya qiluvchilari va joy beruvchilari yo‘qdir» - der edilar[\[90\]](#).

Abu Qatoda roziyallohu anhu dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kechalari uxlaganlarida o‘ng tarafiga yonboshlar, (tahajjudan so‘ng) tongga yaqin uxlaganlarida esa tirsaklarini qo‘yib, kaftlariga boshlarini qo‘yar edilar»[\[91\]](#).

Aziz kitobxon!

Alloh ta‘oloning bizga in‘om etgan ne‘matlari ichidapayg‘ambarlarning sayyidi va oxirgisi, yaralmishlarning eng afzali bo‘lganpayg‘ambarimizsollallohu alayhi va sallamning yotgan to‘shaklari haqida o‘ylab ko‘ring!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yotgan to‘shak xurmo yaproqlari bilan to‘ldirilgan teri edi»[\[92\]](#).

Umar ibn Xattob roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

حَدَّثَنِي عُمَرُ بْنُ الْخَطَّابِ قَالَ دَخَلْتُ عَلَى رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَهُوَ عَلَى حَصِيرٍ قَالَ فَجَلَسْتُ فَإِذَا عَلَيْهِ إِزَارٌ وَلَيْسَ عَلَيْهِ غَيْرُهُ وَإِذَا الْحَصِيرُ قَدْ أَثَرَ فِي جَنْبِهِ وَإِذَا أَنَا بِقَبْضَةٍ مِنْ شَعِيرِ نَحْوِ الصَّاعِ وَقَرَّظَ فِي نَاحِيَةِ فِي الْعُرْفَةِ وَإِذَا إِهَابٌ مُعَلَّقٌ فَابْتَدَرْتُ عَيْنَايَ فَقَالَ مَا يَبْكِيكَ يَا ابْنَ الْخَطَّابِ فَقُلْتُ يَا نَبِيَّ اللَّهِ وَمَالِي لَا أَبْكِي وَهَذَا الْحَصِيرُ قَدْ أَثَرَ فِي جَنْبِكَ وَهَذِهِ خِزَانَتُكَ لَا أَرَى فِيهَا إِلَّا مَا أَرَى وَذَلِكَ كَسْرِي وَقَبْصَرُ فِي الثَّمَارِ وَالْأَنْهَارِ وَأَنْتَ نَبِيُّ اللَّهِ وَصَفْوَتُهُ وَهَذِهِ خِزَانَتُكَ قَالَ يَا ابْنَ الْخَطَّابِ أَلَا تَرْضَى أَنْ تَكُونَ لَنَا الْآخِرَةَ وَلَهُمُ الدُّنْيَا قُلْتُ بَلَى (رواه ابن ماجه)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kirdim, ul zot bo‘yra ustida yotibdilar. Oldilariga o‘tirdim, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning egnida faqat izor (beldan pastga kiyiladigan kiyim) bor edi, xolos. Bo‘yra yonboshlariga botib ketibdi, uydagi narsalarga nazar tashladim. Uyning bir chetida uch-to‘rt xovuch arpa, akas qo‘zog‘i va devorda osig‘lik meshni ko‘rib ko‘zimdan yosh quyildi.

-«Ey Umar, nimaga yig‘layapsiz?», deb so‘radilar.

- «Ey Nabiylulloh, nega yig'lamas ekanman, bo'yra yonboshingizga botib ketgan bo'lsa, uyingizda nima borligini ham ko'rib turgan bo'lsam! Kisro va Qaysarlarni qarang, noz-ne'matlar, anhorlar ichra bo'lishsa-yu, siz Allohning payg'ambari, tanlaganining holi bu bo'lsa!»

- «Ey Xattobning o'g'li, oxirat bizga va dunyo ularga bo'lishiga rozi emasmisiz?!» - dedilar.[\[93\]](#)

### Qiyomul layl (Tungi ibodatlari)

Tun Madinaga bostirib kelib, uni o'z zulmati bilan qamrab olardi. Biroq, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namoz va Allohning zikri bilan kechani yoritib, tahajjud namozlarini o'qir, Yeru Osmonlar Robbisiga munojotlar qilib, ishlarning kaliti qo'lida bo'lgan zot – Yaratuvcisining amriga itoat etib duolar qilar edi.

( يَا أَيُّهَا الْمُرْمَلُ أَمْ لَيْلٌ إِلَّا قَلِيلًا أَمْ نِصْفَهُ أَمْ انْقُصَ مِنْهُ قَلِيلًا أَمْ زِدَ عَلَيْهِ وَرَتَّلَ الْقُرْآنَ تُرْتِيلًا )

«Ey (kiyimlariga) o'ralib olgan zot, kechasi (bedor bo'lib namozda) turing! Faqat ozgina – u (kecha)ning yarmida (uxlab orom oling) yoki (uyquni kechani) yarmidan ham bir oz kamaytiring, yoxud unga (bir oz) ziyoda qiling (ya'ni kechani yarmidan ko'prog'ida uxlab, istirohat qiling) va Qur'onni tartil bilan (ya'ni dona – dona qilib) tilovat qiling!»[\[94\]](#).

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ كَانَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يُصَلِّي حَتَّى تَوَرَّمَتْ قَدَمَاهُ فَيَقِيلُ لَهُ إِنَّ اللَّهَ قَدْ غَفَرَ لَكَ مَا تَقَدَّمَ مِنْ ذَنْبِكَ وَمَا تَأَخَّرَ قَالَ أَفَلَا أَكُونُ عَبْدًا شَكُورًا (رواه ابن ماجه)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam (kechalari o'rinlaridan) turib namoz o'qirdilar, hatto oyoqlari shishib ketardi. Ul zotga: «Yo Rasululloh, AllohSizning avvalgi va keyingi gunohlaringizni kechirgan bo'lsa ham shunday qilasizmi?!» deyilsa: «**Minnatdor banda bo'lmaymi?!**» — deb javob berar edilar»[\[95\]](#).

Asvad ibn Zayd aytdi: «MenOisha roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning tungi namozlari haqida so'radim.Oisha roziyallohu anho shunday dedilar: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kechani avvalida uxlar, keyin turardilar. Saharvaqti bo'lganda vitr o'qirdilar, keyin joylariga kelardilar. Agar ayollariga ehtiyojlari bo'lsa, ularga yaqinlik qilar, azonni eshitsalar o'rnilaridan shoshilib turar, junub bo'lsalar g'usl qilib, bo'lmasa tahorat olib, keyin namozga chiqar edilar»[\[96\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning tungi namozlari o'ta hayratomuz-ki, u bizni uning uzunligi haqida fikrlashimiz hamda uni o'zimizga namuna qilib olishimizga undaydi!

Abu Abdulloh Huzayfa ibn al-Yamon roziyallohu anhu dedilar:

«Men bir kecha Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan birga namoz o'qidim. U zot «Baqara» surasiniboshladilar. Men: «Yuzinchi oyatdan so'ngra ruku' qiladilar», deb o'yladim. Biroq, undan o'tib ketdilar. Men: «Baqara surasini bir

rakatda o‘qir ekanlar-da?», deb o‘yladim. Biroq, davom etib, Oli Imron surasini boshladilar, uni ham o‘qib tugatdilar. Men: «Endi ruku’ qilsalar kerak», deb o‘yladim. Keyin Niso surasini boshladilar va o‘qib tugatdilar. Ul zot harbir harfni dona-dona talaffuz qilar, tasbeh zikr qilingan oyatdan o‘tsalar tasbeh aytar, so‘rash bor joyda so‘rar, panoh so‘rash bosh joyda panoh so‘rar edilar. Keyin ruku’ qildilar va: «Subhana robbiyal aziym» (Buyuk robbimni mushriklar sifatlayotgan yomon-noqis sifatlardan poklayman)» deya boshladilar. Ruku‘larining uzunligi qiyomlariga yaqin miqdorda bo‘ldi. Keyin: «Sami‘allohu liman hamidah. Robbana lakal-hamd» (Alloh o‘ziga hamd aytganlarni eshitadi. Robbimiz, Senga hamdlar bo‘lsin) dedilar. Keyin ruku‘lariga yaqin miqdorda, uzoq turib qoldilar. Keyin sajda qildilar va: «Subhana robbiyal a‘lo» (Oliy Robbimni mushriklar sifatlayotgan yomon sifatlardan poklayman) dedilar. Sajdalari ham (uzunlikda) qiyomlariga yaqin edi»[\[97\]](#).

### **Bamdoddan so‘ng**

Madina kechasining sokinligi tugab, tong yorisha boshlagan paytda, masjidida bamdod namozi jamoat bilan o‘qilgandan so‘ng Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Quyosh chiqquniga qadar Allohning zikri bilan mashg‘ul bo‘lar edilar. Keyin ikki rak‘at namoz o‘qir edilar.

Jobir ibn Samura roziyallohu anhu dedilar:

«Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam bamdod namozini o‘qiganlaridan so‘ng namozgohlarida quyosh chiqquniga qadar o‘tirar edilar»[\[98\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bu buyuk sunnatni qilishga rag‘batlantirib, undagi ajru-savoblarni eslatdilar.

Anas roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مَنْ صَلَّى الْغَدَاةَ فِي جَمَاعَةٍ ثُمَّ قَعَدَ يَذْكُرُ اللَّهَ حَتَّى تَطْلُعَ الشَّمْسُ ثُمَّ صَلَّى رَكْعَتَيْنِ كَانَتْ لَهُ كَأَجْرِ حَجَّةٍ وَعُمْرَةٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ تَامَّةٌ تَامَّةٌ (رواه الترمذي)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Bamdodni jamoat bilan o‘qigan, keyin quyosh chiqquniga qadar Allohni yod qilib o‘tirgan, so‘ngra ikki rak‘at namoz o‘qigan odamga bir haj va bir umra savobi to‘la, to‘la, to‘la qilib beriladi» - dedilar»[\[99\]](#).

### **Choshgoh namozi**

Kun yarimlab, quyoshning harorati ko‘tarildi. Bu choshgoh vaqtidir. Bu - harakat va ehtiyojlarni qondirish mahalidir. Payg‘ambarlik mas‘uliyati, vakillar bilan uchrashish, sahobalarga ta‘lim berish va oila a‘zolarining haqlarini ado etish kabi og‘ir yuklarni ko‘tarishlariga qaramay, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh ta‘olaga ibodat qilar edilar.

Muoz roziyallohu anhu Oisha roziyallohu anhadan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam choshgoh namozini o‘qirmidilar?» - deb so‘raganida: - «Ha, to‘rt rak‘atva undan ziyoda Alloh xohlaganicha o‘qir edilar» - deb javob berdilar»[\[100\]](#).



Choshgoh namozini o‘qishni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vasiyat qilgan edilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: «Xalilimsollallohu alayhi va sallam haroyda uch kun ro‘za tutishni, (kunda) ikki rak‘at choshgoh namozini hamda uxlashdan avval vitr namozini o‘qishni menga vasiyat qildilar»[\[101\]](#).

### **Nafl namozlarini uyda o‘qishlari**

Ushbu xonadon Iymon bilan obod, zikru ibodat bilan limmo-lim edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam har birimizning xonadonimiz ham shunday bo‘lishi kerakligini ta’kidlab, ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qilgan quyidagi vasiyatni qildilar:

عَنْ ابْنِ عُمَرَ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ اجْعَلُوا فِي بُيُوتِكُمْ مِنْ صَلَاتِكُمْ وَلَا تَتَّخِذُوهَا قُبُورًا (رواه البخاري)

**«Uylaringizda ham namoz o‘qinglar va ularni qabriston qilib olmanglar!»**[\[102\]](#)

Ibn Qayyim rahimahulloh yozadilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam barcha sunnat namozlarini va biror sababga bog‘liq bo‘lmagan nafl namozlarining barchasini, xususan, shom namoziningsunnatini uylarida o‘qir edilar. Ul zot sunnat namozlarni masjidda o‘qiganlari rivoyat qilinmagan»*.[\[103\]](#)

### **Yig‘ilari**

Hamma ham yig‘laydi! Biroq, yig‘i qanday va kim uchun bo‘lishi kerak!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xohlasalar dunyoni qo‘llariga olishlari mumkin bo‘lgan, jannat oldida va o‘zlari jannatning eng oliy maqomida bo‘lishlariga qaramay yig‘lar edilar!

Ha, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yig‘lar edilar! Biroq, bu yig‘i obidlar yig‘isi edi!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamnamozda Robbiga munajat qilar yoki Qur‘on tilovatini tinglar ekan, yig‘lar edilar! Bu yig‘i:

- Qalbning yumshoqligi;
- Yurakning sofligi;
- Allohning buyukligini bilish;
- Alloh ta‘olodan qo‘rqish yig‘isi edi!

Mutorrif ibn Abdulloh otasidan shu rivoyatni qiladi:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning namoz o'qiyotganlarini ko'rdim. Yig'laganlari sababli ichlaridan qozonning qaynashi singari tovush kelar edi»[\[104\]](#).

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ قَالَ لِي النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَفْرَأُ عَلَيَّ الْقُرْآنَ قُلْتُ أَفْرَأُ عَلَيْكَ وَعَلَيْكَ أَنْزَلَ قَالَ إِنِّي أُحِبُّ أَنْ أَسْمَعَهُ مِنْ غَيْرِي (رواه البخاري)

وفي رواية: فَفَرَأْتُ سُورَةَ النَّسَاءِ حَتَّى أَتَيْتُ إِلَى هَذِهِ الْآيَةِ (فَكَيْفَ إِذَا جِئْنَا مِنْ كُلِّ أُمَّةٍ بِشَهِيدٍ وَجِئْنَا بِكَ عَلَى هَؤُلَاءِ شَهِيدًا) قَالَ حَسْبُكَ الْآنَ فَالْتَفَتُ إِلَيْهِ فَإِذَا عَيْنَاهُ تَذْرِفَانِ

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga:

-«**Menga (Qur'on) o'qib bering!**»- dedilar. Men:

-«Yo Rasululloh, Qur'on Sizga nozil bo'lgan bo'lsa-yu, men Sizga tilovat qilib beramanmi?» - dedim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

-«**Men Qur'onni boshqalardan tinglashni yaxshi ko'raman**» - dedilar.

Men Niso surasini o'qib, «**Har bir ummatdan (o'z payg'ambarini) guvoh sifatida keltirganimizda va Sizni (ey Muhammad,) ularga guvoh qilib keltirganimizda (ularning holi) ne kechur?!**»[\[105\]](#) oyatiga yetganimda to'xtatdilar. Qarasam, ko'zlari yosh quyayotgan ekan»[\[106\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sochlari va soqollaridagi oq mo'ylar haqida fikr yuritib ko'ring. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bu oq tuklarning sababini muborak tillari bilan qanday bayon qilganiga bir quloq tuting.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ قَالَ قَالَ أَبُو بَكْرٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ يَا رَسُولَ اللَّهِ قَدْ شَيْبَتَ قَالَ شَيْبَتَنِي هُوْدُ وَالْوَأَقِعَةُ وَالْمُرْسَلَاتُ وَعَمَّ يَنْسَاءُلُونَ وَإِذَا الشَّمْسُ كُوِّرَتْ (رواه الترمذي)

Abu Bakr roziyallohu anhu:

- «Yo Rasululloh, soch-soqollaringizga oq tushibdi-ku?!» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

-«**Mening soch-soqolimni «Hud», «Voqe'a», «Val-mursalat», «Amma yatasaalun» va «Izash-shamsu kuvvirat» suralari oqartirib yubordi**» - dedilar[\[107\]](#).

### Tavoze'lari

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam odamlarning eng go'zal xulqlisi bo'lib, Oisha roziyallohu anho aytganlaridek: «**Xulqlari Qur'on edi**»[\[108\]](#).

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

(عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِنَّمَا بُعِثْتُ لِأَتَمِّمَ صَالِحَ الْأَخْلَاقِ) (رواه أحمد)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:



«Men yaxshi axloqlarni mukammal qilish uchun yuborildim» - dedilar[109].

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ سَمِعَ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ يَقُولُ عَلَى الْمِنْبَرِ سَمِعْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ لَا تُطْرُونِي كَمَا أَطْرَتِ النَّصَارَى ابْنَ مَرْيَمَ فَإِنَّمَا أَنَا عَبْدُ اللَّهِ وَرَسُولُهُ (رواه البخاري)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

**Meni nasroniylar Iyso ibn Maryamni haddan ziyod madh etganlaridek madh etmanglar. Men (Allohning) bandasiman, xolos. «Allohning quli va elchisi» deb aytinglar - dedilar[110].**

Anas roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسٍ أَنَّ رَجُلًا قَالَ يَا مُحَمَّدُ يَا خَيْرَنَا وَابْنَ خَيْرِنَا وَيَا سَيِّدَنَا وَابْنَ سَيِّدِنَا فَقَالَ قُولُوا بِقَوْلِكُمْ وَلَا يَسْتَجْرِكُمْ الشَّيْطَانُ أَوْ الشَّيَاطِينُ قَالَ إِحْدَى الْكَلِمَتَيْنِ أَنَا مُحَمَّدُ بْنُ عَبْدِ اللَّهِ وَرَسُولُهُ أَنَا مُحَمَّدٌ عَبْدُ اللَّهِ وَرَسُولُهُ مَا أَجِبُ أَنْ تَرَفَعُونِي فَوْقَ مَنْزِلَتِي الَّتِي أَنْزَلَنِي اللَّهُ عَزَّ وَجَلَّ (رواه أحمد)

Bir kishi: «Ey Muhammad! Ey eng yaxshimiz! Ey eng yaxshimizning o'g'li! Ey sayyidimiz! Ey sayyidimizning o'g'li!» - deb xitob qildi.

Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

**«Ey odamlar, sizlarmenga to'g'ri gapiraveringlar, shayton sizlarni adashtirmasin! Men - Allohning bandasi va rasuli bo'lgan Muhammad ibn Abdullohman. Sizlarmeni Alloh qo'ygan maqomdan yuqori maqomga qo'yishingizni xohlamayman» - dedilar[111].**

Ba'zi odamlar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni haddan ziyod ulug'laydilar va u zot - g'ayb ishlarini biladi, zarar va foyda yetkazadi, muhtojlarning ehtiyojini biladi, kasallarga shifo beradi,- deb e'tiqod qilishadi.

Alloh ta'olo bu tushunchani butunlay rad etib shunday dedi:

( قُلْ لَا أَمْلِكُ لِنَفْسِي نَفْعًا وَلَا ضَرًّا إِلَّا مَا شَاءَ اللَّهُ وَلَوْ كُنْتُ أَعْلَمُ الْغَيْبِ لَاسْتَكْتَرْتُ مِنَ الْخَيْرِ وَمَا مَسَّنِيَ السُّوءُ )

«Ayting: «Men o'zimga ham biron foyda yoki zarar yetkazishga qodir emasman. Magar Alloh xohlagan ishgina bo'lur. Agar g'aybni bilganimda edi, yaxshi amallarni ko'paytirgan va menga biron yomonlik-ziyon yetmagan bo'lur edi»[112].

Barcha olamlar ichida eng afzal bo'lgan Muhammad sollallohu alayhi va sallamdek zot Rabbilari oldida o'zlarini g'oyat xokisor tutar edilar.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudedilar:

عَنْ أَنَسٍ قَالَ مَا كَانَ شَخْصٌ أَحَبَّ إِلَيْهِمْ مِنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَكَانُوا إِذَا رَأَوْهُ لَمْ يَقُومُوا لِمَا يَعْلَمُونَ مِنْ كَرَاهِيَّتِهِ لِذَلِكَ (رواه أحمد)

«Sahobalar uchun Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ko'ra sevimliroq boshqa odam yo'q edi. Shunday bo'lsada, Ul zotni ko'rganlarida o'rinlaridan turishmas, zero Ul zot buni yoqtirmasliklarini bilar edilar»[\[113\]](#).

Siz ishlari ko'p bo'lishiga qaramay bir bechora ayolga o'ta kamtarlik va go'zal xulq bilan vaqt ajratgan Islom ummatiningpayg'ambarisollallohu alayhi va sallamga bir nazar tashlang!

Anas ibn Molik roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسٍ قَالَ جَاءَتْ امْرَأَةٌ إِلَى رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَقَالَتْ يَا رَسُولَ اللَّهِ إِنَّ لِي إِلَيْكَ حَاجَةً فَقَالَ لَهَا يَا أُمَّ فُلَانٍ اجْلِسِي فِي أَيِّ نَوَاحِي السُّكَّكِ شِئْتِ حَتَّى أَجْلِسَ إِلَيْكَ... (رواه أبو داود)

«Bir ayol Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzuriga kelib: «Sizga ehtiyoj bor» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

-«Madinaning ko'chalaridan xohlaganingda o'tir, men sen bilan birga o'tir (ib ehtiyojingga quloq tut) aman» - dedilar»[\[114\]](#).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam g'oyat kamtarin inson edilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ لَوْ دُعِيتُ إِلَى ذِرَاعٍ أَوْ كُرَاعٍ لَاجِبْتُ وَلَوْ أُهْدِيَتْ إِلَيَّ ذِرَاعٌ أَوْ كُرَاعٌ لَقَبِلْتُ (رواه البخاري)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

«Agar (qo'ying) qo'li yoki pochasi uchun chaqirilsam-da ijobat qilaman. Agar menga (qo'ying) qo'li yoki pochasi sovg'a qilinsa-da, qabul qilaman».[\[115\]](#) (Ya'ni, qadrlı narsani qabul qilib, beqadr narsadan yuz o'girmayman.)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning hadisları har bir asrda mutakabbirlar uchun, ularning kibru havolari va gerdayishlari oldida to'siq va qaytaruvchi bo'lib qoladi!

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ushbu hadisni rivoyat qiladi:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ لَا يَدْخُلُ الْجَنَّةَ مَنْ كَانَ فِي قَلْبِهِ مِثْقَالُ ذَرَّةٍ مِنْ كِبَرٍ (رواه مسلم)

«Qalbida zarracha kibri bo'lgan odam jannatga kirmaydi».[\[116\]](#)

Kibr - garchi zarracha bo'lsa ham - jahannamga olib boradigan yo'ldir, Alloh saqlasin. Qarang, Alloh ta'olo gerdayib yurgan mutakabbirni qanday jazoladi, unga g'azab tushirib, qanday azoblar bilan azobladi!

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ بَيْنَمَا رَجُلٌ يَمْشِي وَعَلَيْهِ حُلَّةٌ مَرَجَّلاً جَمَّتَهُ تُعْجِبُهُ نَفْسُهُ إِذْ خُسِفَ بِهِ فَهُوَ يَتَجَلَّجَلُ فِي الْأَرْضِ إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ وَقَالَ حَجَّاجٌ إِذْ خَسَفَ اللَّهُ بِهِ (رواه أحمد)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallameddilar:

«Bir odam chiroyli kiyim kiyib, sochlarini tarab, gerdayib yurib ketayotgan edi, banogoh, Alloh uni Yerga yuttirdi. U Qiyomat kunigacha Yerning tubigaqarab tushib boraveradi».[\[117\]](#)

### Xizmatkorlariga munosabatlari

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bechora va zaif xizmatkorni qilgan ishi yoki zaifligiga qarab emas, balki dini va taqvosiga qarab o'ziga loyiq maqomga qo'yar edilar.

Abu Zar roziyallohu anhuga xitoban Rasululloh sollallohu alayhi va sallamxizmatkor va mardikorlar haqida shundaydedilar:

إِخْوَانُكُمْ خَوْلُكُمْ جَعَلَهُمُ اللَّهُ تَحْتَ أَيْدِيكُمْ فَمَنْ كَانَ أَخُوهُ تَحْتَ يَدَيْهِ فَلْيُطْعِمْهُ مِمَّا يَأْكُلُ وَلْيَلْبِسْهُ مِمَّا يَلْبَسُ وَلَا تُكَلِّفُوهُمْ مَا يَغْلِبُهُمْ فَإِنْ كَلَّفْتُمُوهُمْ فَأَعِينُوهُمْ عَلَيْهِ (رواه مسلم)

«Ular sizlarning birodarlaringizdir. Alloh ta'olo ularni sizlarning qo'l ostingizda qilib qo'ydi. Ularga o'zingiz yegan narsalaringizdan yediringiz, kiygan narsalaringizdan kiydiringiz va og'ir bo'lgan narsalarni ularga yuklamangiz! Agar og'ir narsalarni yuklasangiz yordam etingiz!»[\[118\]](#)

Siz bironta xizmatkorning o'z xojasiga Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xizmatkori aytgani kabi maqtozni aytganini eshitganmisiz?!

Anas ibn Molik roziyallohu anhu aytadilar:

عَنْ أَنَسٍ قَالَ خَدَمْتُ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ عَشْرَ سِنِينَ فَمَا قَالَ لِي أَفَّ قَطُّ وَمَا قَالَ لِي شَيْءٍ صَنَعْتُهُ لَمْ صَنَعْتُهُ وَلَا لِي شَيْءٍ تَرَكْتُهُ لَمْ تَرَكْتُهُ (رواه الترمذي)

«Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga o'n yil xizmat qildim, ul Zot menga biron marta «Uf»demadilar, bironta qilgan ishim uchun: «Nega bunday qilding!»-, qilmagan ishim uchun:«Nega qilmading!»- demadilar».[\[119\]](#)

U zot xizmatlarida o'tgan to'la o'n yil davomida xodimlarini jerkimadilar, balki, uni taqdirlab, qalbiga taskin berib, uning va oilasining ehtiyojlarini qondirar, ularning haqqiga xayrli duolar qilardilar!!

Anas roziyallohu anhu aytadilar:

عَنْ أَنَسٍ.. فَقَالَتْ أُمِّي يَا رَسُولَ اللَّهِ خَوِّدِمُكَ ادْعُ اللَّهَ لَهُ قَالَ فَدَعَا لِي بِكُلِّ خَيْرٍ وَكَانَ فِي آخِرِ مَا دَعَا لِي بِهِ أَنْ قَالَ اللَّهُمَّ أَكْثِرْ مَالَهُ وَوَلَدَهُ وَبَارِكْ لَهُ فِيهِ (رواه مسلم)

Onam: «Yo Rasululloh,xizmatkoringiz haqiga duo qiling!» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam men uchun barcha yaxshiliklarni so'rab duo qildilar va

*duolarining oxirida: «Allohim, uning mol-davlatu farzandlarini ko‘paytir va ularda baraka ato et!» - dedilar».*[\[120\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shijoatli bo‘lishlariga qaramay, hech kimni nohaq xo‘rlamaganlar va urmaganlar. Qo‘l ostidagi ayollari vaxizmatkorlariga hech qachon dag‘al muomala qilmaganlar!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ مَا ضَرَبَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ شَيْئًا قَطُّ بِيَدِهِ وَلَا امْرَأَةً وَلَا خَادِمًا إِلَّا أَنْ يُجَاهِدَ فِي سَبِيلِ اللَّهِ (رواه مسلم)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh yo‘lidagi jihoddan boshqa payt qo‘llari bilan biron narsani - na bir xizmatkorni va na bir ayolni urmadilar».*[\[121\]](#)

Yana dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا أَنَّهَا قَالَتْ مَا خُبِرَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ بَيْنَ أَمْرَيْنِ قَطُّ إِلَّا أَحَدٌ أَيْسَرَهُمَا مَا لَمْ يَكُنْ إِنَّمَا فَإِنْ كَانَ إِنَّمَا كَانَ أَبْعَدَ النَّاسِ مِنْهُ وَمَا انْتَقَمَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لِنَفْسِهِ فِي شَيْءٍ قَطُّ إِلَّا أَنْ تُنْتَهَكَ حُرْمَةُ اللَّهِ فَيَنْتَقِمَ بِهَا اللَّهُ (رواه البخاري)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ikki ishni tanlash ixtiyori berilsa, modomiki gunoh bo‘lmas ekan, qulayini tanlar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o‘zlari uchun hech qachon o‘ch olmaganlar. Biroq, Allohning hurmatlari poymol qilinsa, (U harom qilgan ishlar qilinsa) Alloh uchun g‘azab qilar edilar.*[\[122\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muloyim va og‘ir-bosiq bo‘lishgada‘vat etar edilar.

Oisha roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ.. فَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَا عَائِشَةُ إِنَّ اللَّهَ رَفِيقٌ يُجِبُّ الرَّفْقَ فِي الْأَمْرِ كُلِّهِ .. (متفق عليه)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

*«Ey Oisha, Alloh halimdir va harbir ishda halimlikni yaxshi ko‘radi» - dedilar».*[\[123\]](#)

**Sovg‘aga munosabatlari**

Qablarni bir biriga yaqinlashtiradigan va ulardagi gina-kuduratlarni eritib yuboradigan narsalardan biri - sovg‘adir!!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ كَانَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقْبَلُ الْهَدِيَّةَ وَيُتَيْبُ عَلَيْهَا (رواه البخاري)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sovg‘alarni qabul qilar va evaziga munosib mukofotlar edilar».*[\[124\]](#)

Zero, sovg'a berish va sovg'a uchun minnatdorchilik izhor etish qalb saxovati va yurak tozaligining nishonasidir.

### Mehmondo'stliklari

Saxovat - nabiyilar va rasullarning axloqidan biri bo'lib, payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bu borada hammadan peshqadam edilar. Axir quyidagi so'zlarni aytgan u zot emasmi?!

Abu Shurayh al-Ka'biy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي شُرَيْحِ الْكَعْبِيِّ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ مَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ فَلْيُكْرِمْ ضَيْفَهُ جَائِزَتُهُ يَوْمَ وَلِيْلَةٍ وَالضَّيْفَةَ ثَلَاثَةَ أَيَّامٍ فَمَا بَعْدَ ذَلِكَ فَهُوَ صَدَقَةٌ وَلَا يَحِلُّ لَهُ أَنْ يَتَوَيَّعَ عِنْدَهُ حَتَّى يُخْرِجَهُ (رواه البخاري)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

**«Kim Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa, mehmonini siylasin. Mehmonni siylash haqqi bir kecha-yu, bir kunduzdir. Mehmondorchilik uch kundir. Undan keyingilarisadaqadir. Mezbonga og'irlak bo'lgunicha qadarqolish mehmon uchun halol emasdir»**[\[125\]](#)

Islom olami, hatto, butun dunyo Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kabi oliy axloqli va oliyjanob biror shaxsni ko'rmagan.

Hurmatli kitobxon!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oliyhimmat va oliyjanob ekanlariga dalil bo'luvchi holatlardan birini quyida keltiramiz:

Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ سَهْلِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ أَنَّ امْرَأَةً جَاءَتْ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ بِبُرْدَةٍ مَنَسُوجَةٍ فِيهَا حَاشِيَتُهَا أَتَدْرُونَ مَا الْبُرْدَةُ قَالُوا السَّمْلَةُ قَالَ نَعَمْ قَالَتْ نَسَجْتُهَا بِيَدِي فَجِئْتُ لِأَكْسُو كَهَا فَأَخَذَهَا النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مُحْتَاجًا إِلَيْهَا فَخَرَجَ إِلَيْنَا وَإِنَّهَا إِزَارُهُ فَحَسَنَتْهَا فَلَانُ فَقَالَ اكْسُنِيهَا مَا أَحْسَنَتْهَا قَالَ الْقَوْمُ مَا أَحْسَنَتْ لَيْسَهَا النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مُحْتَاجًا إِلَيْهَا ثُمَّ سَأَلْتُهُ وَعَلِمْتُ أَنَّهُ لَا يَرُدُّ قَالَ إِنِّي وَاللَّهِ مَا سَأَلْتُهُ لِأَلْبَسَهُ إِنَّمَا سَأَلْتُهُ لِتَكُونَ كَفَنِي قَالَ سَهْلٌ فَكَانَتْ كَفَنَهُ (رواه البخاري)

**«Bir ayol Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga bir kiyimlik mato keltirib: «Buni sizga kiydiraman deb o'z qo'llarim bilan to'qidim» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga muhtoj bo'lgan hollarida oldilar. So'ng bizning oldimizga uni izor shaklida o'rab chiqdilar. Bir odam: «Bu juda ham chiroyli ekan. Uni menga bering» - dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Xo'p» - dedilar va bir oz o'tirgach uyiga qaytdilar, kiyimni taxlab, uni xaligi odamga jo'natdilar. Sahobalar u odamga: «Yaxshi ish qilmading! Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muhtoj bo'lganlari uchun kiygan edilar, sen bo'lsang uni so'rab o'tiribsan, bilasanki ul zot so'ragan odamning qo'lini bo'sh qaytarmaydilar» - dedilar. U: «Alloh nomiga ont ichib aytamanki, men uni kiyish uchun emas, kafanlik qilish uchun so'radim» - dedi. Sahl aytadi: Haqiqatan ham, u kiyim o'sha odamga kafan qilindi».**[\[126\]](#)

Hakim ibn Hizom roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ عُرْوَةَ بْنِ الزُّبَيْرِ وَسَعِيدِ بْنِ الْمُسَيَّبِ أَنَّ حَكِيمَ بْنَ حَزَامٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ سَأَلْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَأَعْطَانِي ثُمَّ سَأَلْتُهُ فَأَعْطَانِي ثُمَّ قَالَ يَا حَكِيمُ إِنَّ هَذَا الْمَالَ خَصِرَةٌ خُلُوةٌ فَمَنْ أَخَذَهُ بِسَخَاوَةٍ نَفْسُ بُورِكَ لَهُ فِيهِ وَمَنْ أَخَذَهُ بِإِشْرَافِ نَفْسٍ لَمْ يُبَارَكَ لَهُ فِيهِ كَالَّذِي يَأْكُلُ وَلَا يَشْبَعُ الْيَدُ الْعُلْيَا خَيْرٌ مِنَ الْيَدِ السُّفْلَى... (متفق عليه)

*Men Rasulullah sollallohu alayhi va sallamdan so'radim, berdilar. Yana so'radim, yana berdilar. Yana so'radim, yana berdilar, keyin: - «Ey Hakim, bu mol yashil va shirindir! Uni qalb saxovati bilan olgan odamga barakali qilinadi. Nafs ochko'zligi bilan olgan kishiga esa barakali qilinmaydi. Uning misoliyeb to'yamaydigan odamga o'xshaydi. Yuqori (ya'ni beruvchi) qo'lquyi (ya'ni oluvchi) qo'ldan yaxshiroqdir» - dedilar.*[\[127\]](#)

Jobir roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ ابْنِ الْمُكَدَّرِ قَالَ سَمِعْتُ جَابِرًا رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ يَقُولُ مَا سُئِلَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ عَنْ شَيْءٍ قَطُّ فَقَالَ لَا (رواه البخاري)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan biron narsa so'ralsa, hech qachon «Yo'q» deb aytmadilar»*[\[128\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qo'llaridagi misli ko'rilmagan bu saxovat va oliyjanoblik bilan birga, ul zotning qalblaridagi samimiylik, sodiq muhabbat va chiroyli muomalalarining ham misli yo'q edi. Ul zotning birga o'tirgan harbir kishiga tabassum qilish va yaqin tutish odatlari bor edi. Bu bilan harkim o'zini Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga eng sevimli kishiman deb o'ylar edi.

Jarir ibn Abdulloh roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ جَرِيرِ بْنِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ مَا حَجَبَنِي النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مُنْذُ أَسْلَمْتُ وَلَا رَأَيْتُ إِلَّا تَبَسَّمَ فِي وَجْهِ (رواه البخاري)

*«Islomni qabul qilganimdan beri Rasululloh sollallohu alayhi va sallam meni (huzurlariga kirishdan) man qilmadilar va qachon meni ko'rsalar, yuzimga tabbasum bilan boqar edilar».*[\[129\]](#)

Sahobalarning ul zotga bergan ta'riflarida hammamizuchun kifoya va ibrat bordir.

Abdulloh ibn Xoris roziyallohu anhu aytadilar:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ الْحَارِثِ بْنِ جَزْءٍ قَالَ مَا رَأَيْتُ أَحَدًا أَكْثَرَ تَبَسُّمًا مِنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ (رواه الترمذي)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ko'ra sertabassum boshqa birovni ko'rmadim».*[\[130\]](#)

Abu Zar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar:

عَنْ أَبِي ذَرٍّ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ تَبَسُّمُكَ فِي وَجْهِ أَخِيكَ لَكَ صَدَقَةٌ (رواه الترمذي)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Birodaringiz yuziga qilgan tabassumingiz - sadaqadir» - deganlar.*[\[131\]](#)

Xizmatkorlari Anas roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdagi sifatlarini shundayta'rifladiki, u sifatlar bir odamda emas, hatto bir necha odamda ham jam bo'lmaydi:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'ta iltifotli zot edilar. Ehtiyojini so'ragan harbir odamga quloq solar, u odam burilib ketmagunicha o'girilmas edilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamqo'llarini olmoqchi bo'lgan harkimsaga qo'llarini uzatar, qo'l bergan odam qo'lini bo'shatmagunicha qo'llarini tortib olmas edilar».*[\[132\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ehsonli va xushmuomalali bo'lishlariga qaramay, gunoh ishlarni ko'rib qolsalar qaytarar va uning bo'lishiga rozi bo'lmas edilar.

Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَبَّاسٍ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ رَأَى خَاتَمًا مِنْ ذَهَبٍ فِي يَدِ رَجُلٍ فَنَزَعَهُ فَطَرَحَهُ وَقَالَ يَعْمِدُ أَحَدَكُمْ إِلَى جَمْرَةٍ مِنْ نَارٍ فَيَجْعَلُهَا فِي يَدِهِ... (رواه مسلم)

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir kishining qo'lida tillo uzukni ko'rib goldilar, uni (uning barmoqlaridan) chiqarib otib yubordilar va:*

*- «Sizlardan biringiz jahannam cho'g'ini olib, uni barmog'iga taqib oladimiya?!» - dedilar».*[\[133\]](#)

### **Bolalarga nisbatan mehr-shafqatlari**

Toshbag'ir insonlar mehribonlikni bilmaydi. Ular qattiq toshga o'xshab, na berish va na olishga qodir. Ular eng oddiy insoniy tuyg'u va hissiyotlardan ham mahrumdir.

Ammo payg'ambarlar Alloh ta'olo tarafidan yumshoq dil va mehribon qalb berilgan zotlar bo'lib, qalblarini mehr-shafqat tuyg'ulari harakatlantiradi!

Anas roziyallohu anhu dedilar: *«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'g'illari Ibrohimni qo'llariga olib o'pdilar va hidladilar».*[\[134\]](#)

Bu mehr nafaqat Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yaqinlariga, balki, barcha musulmonlarning farzandlari uchun umumiy edi.

Ja'far roziyallohu anhudan ayoli Asmo binti Umays shunday dedilar:

*«Ja'far va do'stlari shahid bo'lgan kuni mening oldimga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam kirdilar va Ja'farning bolalarini chaqirdilar. Men ul zotning (ularni bag'irlariga bosib), hidlayotganini va ko'zlaridan yosh quyilayotganini ko'rib:*

*- «Ja'far haqida sizga biror xabar keldimi?» - deb so'radim.*



- «**Ha, u bugun halok bo'ldi**» - dedilar.

Men yig'lay boshladim....

...Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qaytib ketdilar va ahliga: - «**Ja'far xonadoniga taom tayyorlanglar! Chunki, ular bugun o'zlariga qaray olmaydigan holdalar**» - dedilar»[\[135\]](#)

Farzandlarining o'limi sababli ko'zlariga yosh kelganda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Sa'd ibn Uboda roziyallohu anhu:

- «Yo Rasululloh, bu nimasi?» deganida, ul zot:

قَالَ: هَذِهِ رَحْمَةٌ وَضَعَهَا اللَّهُ فِي قُلُوبِ مَنْ شَاءَ مِنْ عِبَادِهِ وَلَا يُرْحَمُ اللَّهُ مِنْ عِبَادِهِ إِلَّا الرَّحْمَاءُ (رواه البخاري)

- «**Bu Alloh ta'olo bandalaridan O'zi xohlagan kishisining qalbiga o'rnatgan rahm-shafqatdir. Darhaqiqat, Alloh bandalari ichidan faqat rahmdil kishilargagina rahm qilur**» - dedilar.[\[136\]](#)

Anas ibn Molik roziyallohu anhu rivoyat qildilar:

...O'g'illari Ibrohim jon taslim qilarkan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ko'zlaridan yosh quyila boshladi. Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu:

- «Yo Rasululloh, Siz-a?!» - degan edi:

- «**Ey Avfning o'g'li, bu - rahmatdir**» - deb javob berdilar va shuni qo'shimcha qildilar:

- «**Ko'z yosh to'kadi, qalb qayg'uradi, biz faqat Rabbimizni rozi qiladigan so'zlarni aytamiz. Ey Ibrohim, Biz sendan ajralganimiz uchun qayg'udamiz**».[\[137\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oliy xulqlaridan namuna olish va u zotning izlaridan yurishimiz lozim bo'lgani holda, ko'plarimiz bolalarga mehr-shafqat ko'rsatishni unutganmiz. Bizdagi jaholat, kaltafahmlik va kibr shu darajaga yetib bordiki, bolalarning qalblarini ochadigan kalitni yo'qotdik! Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning kaliti esa qo'llari va tillarida edi. U zot bolalarni sevar, qadrlarva ularni baland martabaga qo'yar edilar.

Anas roziyallohu anhu bolalar oldidan o'tar ekan, ularga salom berar va: «**Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday qilar edilar**» -der edi[\[138\]](#).

Tabiiyki, bolalarning o'ziga xos qiyinchiliklari va to'polonlari bo'lar, biroq Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularni jerkimas, so'kmas va ularga dashnom bermas, balki, ularga xotirjamlik va muloyimlik bilan muomala qilar edilar.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ كَانَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يُؤْتِي بِالصَّبِيَّانِ فَيَدْعُو لَهُمْ فَأْتِي بِصَبِيٍّ فَبَالَ عَلَى نَوْبِهِ فَدَعَا بِمَاءٍ فَأَتْبَعَهُ إِيَّاهُ وَلَمْ يَغْسِلْهُ (رواه البخاري)



«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzurlariga bolalarni olib kelinar, ul zot ular haqqiga duo qilar edilar. Bir bolani olib kelganlarida u Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning kiyimlarini «ho'l» qilib qo'ydi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam suv olib kelishni buyurdilar va u suvni «ho'lilik» ustidan quydilar. Biroq, «ho'lilik»ni (siqib) yuvmadilar[139]».

Xurmatli kitobxon!

Sizpayg'ambarning uyida o'tirar ekansiz, bolalaringizni erkalash, o'g'illaringiz bilan hazillashish va ularning kulgilari va shirin so'zlarini eshitish xayolingizga keldimi?! Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bularning hammasini qilar edilar!

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Hasan ibn Aliyga tilini chiqarar, bola uning qizilligini ko'rib kular edi».[140]

Anas roziyallohu anhu dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Ummu Salamaning qizi Zaynabni erkalatar ekanlar: «Zaynabcha, Zaynabcha» - deb bir necha marta takrorladilar»[141]

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning bolalarga bo'lgan mehr-muhabbatlari xususida Abu Qatoda roziyallohu anhu shunday rivoyat qiladilar:

Men Nabiy sollallohu alayhi va sallam qizlari Zaynabning qizi Umoma yelkalarida bo'lgan holda odamlarga imom bo'lib namoz o'qiganlarini ko'rdim. Ruku' qilsalar yerga qo'yar, sajdadan turganda qaytarib olardilar.[142]

Mahmud ibn Rabi' roziyallohu anhu dedilar:

«Men besh yoshda ekanimda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam chelakdan suv olib, yuzimga purkaganlarini xotirlayman».[143]

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam katta-yu, kichikka ta'lim berar edilar.

Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ قَالَ كُنْتُ خَلْفَ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَوْمًا فَقَالَ يَا غُلَامُ إِنِّي أَعَلَّمْتُكَ كَلِمَاتٍ أَحْفَظُ اللَّهُ يَحْفَظُكَ اللَّهُ نَجِدُهُ تُجَاهَكَ إِذَا سَأَلْتَ فَاسْأَلِ اللَّهَ وَإِذَا اسْتَعْنَيْتَ فَاسْتَعِنْ بِاللَّهِ... (رواه الترمذي)

Kunlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning orqalarida edim, dedilar:

«Hoy bola, men senga bir necha so'zlarni o'rgataman: Allohni yodingda tut, seni saqlaydi, Allohni yodingda tut, Uni oldingdako'rasan, (ehtiyojingni) so'rasang, Allohdan so'ra, yordam so'rasang Allohdan so'ra!...».[144]

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning muborak xulq-atvorlari va ulug‘ siyratlari bilan tanishgach, shoyad biz ham ularbilanqalblarni tiriltirsak va ular ta’sirida hayotda bir iz qoldirsak. Shundagina uylarimiz otalar muhabbati, onalar mehr-shafqati va jajji qalblariga surur kirgan bolalar bilan gullab, yashnaydi.

### **Hilm va sabrlari**

Zo‘ravonlik, huquqlarni kuch ishlatib poymol qilish zolimlar alomatidir. Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam esa haqdorlarga haqlarini olib beruvchi adolat qoidalarini tuzib qo‘ydilar. Ul zot Alloh subhanahu va ta’olo ato etgan buyurish va ta’qiqlashni joriy qildilar.

Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xonadonlarida zulm, qattiqqo‘llik, tajovuzkorlik kabi illatlar bo‘lishidan xotirjammiz.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qo‘llari bilan Alloh yo‘lidagi jihoddan boshqa paytda na bir ayolni va na birxizmatkorni urdilar! Shaxsiyatlariga nisbatan qilingan ishlardan aslo o‘ch olmas edilar. Allohning haromlarini qilingan paytda Alloh ta’olo uchungina intiqom olar edilar».* [\[145\]](#)

Anas roziyallohu anhu dedilar:

*«Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan yo‘lda ketar edim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamningegnilarida chetlari dag‘al najroniy to‘n bor edi. Bir a‘robiy ul zotga yetib oldi-da, to‘nlaridan qattiq tortdi. Men Rasulullohning bo‘yinlarida qattiq tortish oqibatida to‘nning dag‘al chetlari iz qoldirganini ko‘rdim. Keyin u a‘robiy:*

- *«Ey Muhammad, amr etgin, huzuringdagi Allohning molidan (menga ham berilsin)» - dedi.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga o‘girilib qaradilar va kuldilar. Keyin unga berishga amr etdilar».* [\[146\]](#)

Jubayr ibn Mut‘im roziyallohu anhu aytadilar:

أَخْبَرَنِي جُبَيْرُ بْنُ مُطْعِمٍ أَنَّهُ بَيْنَا هُوَ مَعَ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَمَعَهُ النَّاسُ مُقْبِلًا مِنْ حُنَيْنٍ عَلَفَتْ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ الْأَعْرَابُ يَسْأَلُونَهُ حَتَّى اضْطَرُّوهُ إِلَى سَمْرَةَ فَحَطَفَتْ رِدَاءَهُ فَوَقَفَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَقَالَ أَعْطُونِي رِدَائِي فَلَوْ كَانَ عَدَدُ هَذِهِ الْعِضَاهِ نَعَمًا لَقَسَمْتُه بَيْنَكُمْ ثُمَّ لَا تَجِدُونِي بِخِيَالٍ وَلَا كَدُوبًا وَلَا جَبَانًا (رواه البخاري)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Hunayn jangidan qaytayotganlarida a‘robiylar ehtiyojlarini aytib u zotga ergashdilar va bir daraxt oldiga taqab olib borib qo‘ydilar. Haligi daraxt u zotning to‘nlarini ilib qoldi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

- «*To‘nimni qaytirib beringlar! Alloh nomiga ont ichib aytamanki, shu daraxtlar sonicha tuyalarim bo‘lsa, o‘rtangizda taqsim qilib berar edim, keyin esa meni baxil, qo‘rqoq va yolg‘onchi emasligimni bilar edingiz*» - dedilar [\[147\]](#).

Barcha ishlardagi muloyimlik, manfaatlarni bilish va zararlarni qaytarish ta‘lim-tarbiyaning eng go‘zal ko‘rinishlaridandir.

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

أَنَّ أَبَا هُرَيْرَةَ قَالَ قَالَ أَعْرَابِيٌّ قَبَالَ فِي الْمَسْجِدِ فَنَنَازَلَهُ النَّاسُ فَقَالَ لَهُمُ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ دَعُوهُ وَهَرِّقُوا عَلَى بَوْلِهِ سَجْلًا مِنْ مَاءٍ أَوْ دُنُوبًا مِنْ مَاءٍ فَإِنَّمَا بُعِثْتُمْ مُبَسِّرِينَ وَلَمْ تُبْعَثُوا مُعَسِّرِينَ (رواه البخاري)

«*Bir a‘robiiy masjidga bavl qildi (siydi). Shunda sahobalar uni ayblash uchun o‘rinlaridan turdilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam esa:*

- «*Uni o‘z holiga qo‘yinglar va bavli ustidan bir chelak suv quyinglar. Sizlar qiyinlashtiruvchi emas, yengillashtiruvchi qilib jo‘natilgansizlar!*» - dedilar. [\[148\]](#)

Sahobalarni xato qilayotganodamni ko‘rib turishgan va unga inkor qilish uchun uning oldiga shoshishgan edi. Ular esa bunga haqli ham edilar. Biroq, halim payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam ularni to‘xtatdilar. Chunki, bu ishni qilgan odam johil va unga qattiq inkor qilishning ortida zarar bor edi. Bu o‘rinda Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qilgan ishlari to‘g‘riroqedi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning da‘vat ishida qilgan sabrlari namuna olish va ergashishlikka loyiq.

Urva roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

حَدَّثَنِي عُرْوَةُ أَنَّ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا زَوْجَ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ حَدَّثَتْهُ أَنَّهَا قَالَتْ لِلنَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ هَلْ أَتَى عَلَيْكَ يَوْمٌ كَانَ أَشَدَّ مِنْ يَوْمٍ أَحَدٌ قَالَ لَقَدْ لَقِيتُ مِنْ قَوْمِكَ مَا لَقِيتُ وَكَانَ أَشَدَّ مَا لَقِيتُ مِنْهُمْ يَوْمَ الْعَقَبَةِ إِذْ عَرَضْتُ نَفْسِي عَلَى ابْنِ عَبْدِ يَالِيلَ بْنِ عَبْدِ كَلَالٍ فَلَمْ يُجِيبْنِي إِلَيَّ مَا أَرَدْتُ فَأَنْطَلَقْتُ وَأَنَا مَهْمُومٌ عَلَى وَجْهِي فَلَمْ أَسْتَفِقْ إِلَّا وَأَنَا بَقَرْنِ النَّعَالِبِ فَرَفَعْتُ رَأْسِي فَإِذَا أَنَا بِسَحَابَةٍ قَدْ أَطْلَقْتَنِي فَنَظَرْتُ فَإِذَا فِيهَا جَبْرَيْلُ فَنَادَانِي فَقَالَ إِنَّ اللَّهَ قَدْ سَمِعَ قَوْلَ قَوْمِكَ لَكَ وَمَا رَدُّوا عَلَيْكَ وَقَدْ بَعَثَ إِلَيْكَ مَلَكَ الْجِبَالِ لِتَأْمُرَهُ بِمَا شِئْتَ فِيهِمْ فَنَادَانِي مَلَكُ الْجِبَالِ فَسَلَّمَ عَلَيَّ ثُمَّ قَالَ يَا مُحَمَّدُ فَقَالَ ذَلِكَ فِيمَا شِئْتَ إِنَّ شِئْتَ أَنْ أُطِيقَ عَلَيْهِمُ الْأَحْسَبِينَ فَقَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ بَلْ أَرْجُو أَنْ يُخْرِجَ اللَّهُ مِنْ أَصْلَابِهِمْ مَنْ يَعْبُدُ اللَّهَ وَحْدَهُ لَا يُشْرِكُ بِهِ شَيْئًا

Oisha roziyallohu anho: «*Uhud kunidan ko‘ra boshingizga og‘irroqbir kun kelganmi?*» - deb savol berganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shunday javob berdilar:

- «*Qavmingizdan ko‘p narsa ko‘rdim. Ularning eng og‘iri Aqaba kuni bo‘lgan edi. Men o‘zimni (himoya qilishi uchun) ibn Abdiyolil ibn Abdikulolga ro‘para qildim. U mening so‘rovimni qabul etmadi. (Men u yerdan) g‘amgin holatda chiqib, boshimni egib yurib, Qarn us-Saolibga yetib kelganimni sezmay qolibman. Boshimni ko‘tardim, bir parcha bulut menga soya solib turar edi. Qarasam, u bulutda Jibrilalayhissalom o‘tiribdi. Shu payt u menga nido qildi:*

*«Alloh ta'olo qavmingizning Sizga bergan javoblarini eshitdi va sizga Tog'lar farishtasini (qavmingiz) haqida istagan narsangizga buyurishingiz uchun yubordi» - dedi.*

*Tog'lar farishtasi menga nido qilib, salom berdi va:*

*- «Ey Muhammad, Alloh ta'olo qavmingizning sizga aytgan so'zlarini eshitdi. Men Tog'lar farishtasiman. Robbingiz meni sizning huzuringizga istagan narsangizga buyurishingiz uchun jo'natdi, siz nima xohlaysiz? Istasangiz ikki tog'ni ularning ustilariga yopib qo'yay?!» - dedi.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

*- «Yo'q, men Alloh ta'olo ularning pushtikamarlaridan Uning o'zigagina ibodat qiladigan, Unga biron narsani sherik qilmaydigan odamlarni chiqarishini umid qilaman» — dedilar [\[149\]](#).*

Ba'zi odamlar bugungi kunda da'vat ishida shoshqaloqlik qilib, samarani tezroq ko'rishni istaydilar. Holbuki, nafs uchun o'ch olish da'vatga va uning xolisligiga putur yetkazadi. Binobarin, da'vatchilar o'rtasida mazkur salbiy ko'rinish yoyilgani sababli ba'zan da'vatlar muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmoqda.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning orzu-umidlari bir necha yillar o'tganidan hamda sabru- kurashlardan so'ng ro'yobga chiqmadimi, axir?!

*Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar:*

قَالَ عَبْدُ اللَّهِ كَأَنِّي أَنْظُرُ إِلَى النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَحْكِي نَبِيًّا مِنَ الْأَنْبِيَاءِ ضَرَبَهُ قَوْمُهُ فَأَدْمَوْهُ وَهُوَ يَمْسَحُ  
الدَّمَ عَنْ وَجْهِهِ وَيَقُولُ اللَّهُمَّ اغْفِرْ لِقَوْمِي فَإِنَّهُمْ لَا يَعْلَمُونَ

*«Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

*Allohningpayg'ambarlaridan birini qavmi qonga belaganida, u qonni yuzidan artib: «Allohim, qavmimni kechir! Chunki ular, bilmaydilar» dedi, deb hikoya qilganlarini hali ham ko'rib turgandekman» [\[150\]](#)*

*Abdulloh ibn Salom roziyallohu anhu rivoyat qiladi:*

*Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahobalar bilan edilar, Zayd ibn Sa'na ismli yahudiy qarzini talab qilib keldi va ul zotning choponlari yoqasini tutib, g'azabnok holatda:*

*- «Hoy Muhammad, haqqimni bermaysanmi?!» - deb, qo'pol so'zlarni ayta boshladi.*

*Umar ibn Xattob roziyallohu anhu bundan qattiq g'azablandilar. G'azabdan ko'zlari chanoqlaridan chiqqudek bo'lib:*

*- «Hoy Allohning dushmani, sen Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga shunday beodobona so'zlar aytib, qo'pollik qilayapsanmi?! U zotni haq bilan yuborgan*

Zotning nomiga ont ichib aytamanki, Uning malomatidan cho‘chimaganimda edi, sening kallangniqilichim bilan olar edim!» - dedilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Umar roziyallohu anhuga og‘ir-bosiqlik bilan:

- «Ey Umar, men va u bundan boshqa narsaga muhtoj edik. Siz meni (qarzni) yaxshi o‘tashga, uni esa qarzini chiroyli so‘rashga chaqirishingiz kerak edi. Ey Umar, uni olib borib, haqqini bering va yigirma so‘ xurmoni ziyoda qiling!» — dedilar.

Umar roziyallohu anhu yigirma so‘ xurmoni oshirib berganida Zayd:

- «Ey Umar, bu ortiqchasi nima uchun?» - deb so‘radi.

Umar roziyallohu anhu:

- «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sening qilgan g‘azabing evaziga buni ziyoda qildilar!» - dedi. Zayd:

- «Ey Umar, meni taniysanmi?» - dedi.

Umar roziyallohu anhu:

- «Yo‘q, sen kimsan?» - dedilar.

- Zayd ibn Sa‘naman.

- Habr (ruhoni)mi?

- Habr (ruhoni).

- Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga nega unday muomala qilib, u so‘zlarni aytding?

- Ey Umar, men Rasulullohning yuziga qaraganimdapayg‘ambarlik belgilarining ikkitasidan boshqa hammasini ko‘rdim. Bu ikkisini sinab ko‘rmagan edim: halimligi jahliga g‘olib keladimi va jahlning oshishi halimligini ziyoda qiladimi? Men endi u ikkisini sinab ko‘rdim. Ey Umar, seni guvoh qilib aytamanki, Allohni Parvardigor, Islomni din va Muhammad sollallohu alayhi va sallamnipayg‘ambar deb rozi bo‘ldim. Yana seni guvoh qilib aytamanki, boyligimning yarmi - men qavmimning eng boy kishisiman - Muhammad sollallohu alayhi va sallamning Ummatiga sadaqa bo‘lsin.

Umarroziyallohu anhu aytdilar:

- Ularning ba‘zilari uchun bo‘laqolsin. Chunki, sen ularning hammasiga yetkaza olmaysan.

Zayd: - Ba‘zilariga bo‘laqolsin - dedi.

Zayd Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oldiga keldi va: «Ashhadu anla ilaxa illalloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluhu» (Allohdan boshqa (haq) iloh yo'q va Muhammad Uning bandasi va elchisi ekaniga guvohlik beraman) - dedi, u zotga iymon keltirib, uni tasdiqladi.[\[151\]](#)

Biz bu holat, uning xotimasi va bo'lib o'tgan suhbat haqida o'ylanib ko'raylik. Shoyad Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning odamlarga nisbatan qilgan sabrlari, ularni muloyimlikva hilm bilan qanday da'vat etganlari, yaxshilik qilsalar qanday rag'batlantirganlari va ulargaqanday quvonch ulashganlaridan o'rnak olsak.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ أَنَّهَا اعْتَمَرَتْ مَعَ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مِنَ الْمَدِينَةِ إِلَى مَكَّةَ حَتَّى إِذَا قَدِمَتْ مَكَّةَ قَالَتْ يَا رَسُولَ اللَّهِ يَا أَبِي أَنْتَ وَأُمِّي قَصَرْتُمْ وَأَثَمْتُمْ وَأَفْطَرْتُمْ وَصُمْتُمْ قَالَ أَحْسَنْتِ يَا عَائِشَةُ وَمَا عَابَ عَلَيَّ

«Madinadan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilanbirga umra qilish uchun chiqdim. Makkaga yetib kelgach: «Ota-onam sizga fido bo'lsin yo Rasulalloh, siz (namozni) qasr (ikki rak'at qilib) o'qidingiz, men to'la (to'rt rak'at) o'qidim. Sizning og'zingiz ochiq, men ro'zador ham bo'ldim» - dedim.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

«Ey Oisha, yaxshi qilibsiz!» - dedilar va meni ayblamadilar». [\[152\]](#)

## Taomlari

Alloh ta'olo Payg'ambar sollallohu alayhi va sallamga nusrat ato etib, odamlar u zot olib kelgan dinga guruh-guruh bo'lib kirgan, huzurlariga oziq-ovqatlaru mol-mulklar oqib kelar, u zotning oldilarida oltin-kumush to'lib-toshar edi!

Shunday holda Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yeb-ichishlari qanday bo'lgan, deb o'ylaysiz?! Hayotlari podshohlar hayoti kabi edimi yoki ulardan ko'ra a'loroq edimi? Taomlari davlatmand boylarning ovqatlari kabi edimi? Yoki ularnikidan yaxshiroqedimi?!

Siz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning taomi, uning ozligi va soddaligini ko'rganingizda hayron bo'lmang!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafot etgunlariga qadar u zotning oila a'zolari ketma-ket ikki kun arpa noniga to'ymanlar». [\[153\]](#)

Boshqabir rivoyatda esa:

«Muhammad sollallohu alayhi va sallamning oila a'zolari Madinaga kelgandan so'ng, ketma-ket uch kecha bug'doy noniga to'yadilar toki ul zot qabz ruh bo'ldilar». [\[154\]](#)

Anas roziyallohu anhu rivoyat qilib dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oldida kamdan kam holatlarda non va go'sht peshinlik yokikechki ovqat paytida jamlangan». [\[155\]](#)

Aksincha, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yeyishga biron narsa topa olmay, och uxlar edilar!

Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va ahli-ayollari ko'pincha davomli kunlar kechki ovqat uchun biron narsa topa olmasdan och uxlar edilar. Ularning noni ko'proq arpa noni edi». [\[156\]](#)

Gap ozlik va tanqislikda emas. Chunki, boylıklar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qo'l ostilarida to'lib toshgan va huzuriga yuklar ortilgan tuyalar kelar edi. Lekin Alloh ta'olopayg'ambarisollallohu alayhi va sallam uchun mukammal va eng to'g'ri hayotni tanlagan edi.

Uqba ibn Horis roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ ابْنِ أَبِي مُلَيْكَةَ أَنَّ عُقْبَةَ بْنَ الْحَارِثِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ حَدَّثَهُ قَالَ صَلَّى بِنَا النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ الْعَصْرَ فَأَسْرَعَ ثُمَّ دَخَلَ الْبَيْتَ فَلَمْ يَلْبِثْ أَنْ حَرَجَ فَقُلْتُ أَوْ قِيلَ لَهُ فَقَالَ كُنْتُ خَلَفْتُ فِي الْبَيْتِ تَبْرًا مِنَ الصَّدَقَةِ فَكَرِهْتُ أَنْ أُبَيِّنَهُ فَفَسَّمْتُهُ (رواه البخاري)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam biz bilan birga asr namozini o'qidilar. Keyin shoshilib uylariga kirib ketdilar. Hech qancha vaqt o'tmadi hamki, qaytib chiqdilar. Bo'lgan holat haqida men so'radim yoki boshqa odam so'radi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Uyda sadaqadan bo'lgan oltinni qoldirgan edim. Uni kechasi bilan olib qolishni yoqtirmadim-da, taqsim qilib yubordim» - dedilar». [\[157\]](#)

Anas roziyallohu anhu dedilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Islomga kirish evaziga harnarsadan so'ralmalar berardilar. Hatto, bir kishi kelganida ikki tog' orasidagi qo'ylarni berdilar. U odam qavmi oldiga borib: «Ey qavmim, musulmon bo'linglar, albatta Muhammad kambag'allikdan qo'rqmagan kishilarning ehsonini qilmoqda!»-dedi». [\[158\]](#)

Anas roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ قَالَ مَا أَكَلَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ عَلَى خَوَانٍ وَلَا فِي سُكْرٍ وَلَا خُبِرَ لَهُ مُرَقَّقٌ (رواه البخاري)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam na xontaxta ustida ovqatlanganlar, na likopchada yeganlar va na u zot uchun yupqa non yopilar edi». [\[159\]](#)

Oisha roziyallohu anho aytadilar:

عَنْ عَائِشَةَ أُمِّ الْمُؤْمِنِينَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ قَالَ لِي رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ ذَاتَ يَوْمٍ يَا عَائِشَةُ هَلْ عِنْدَكُمْ شَيْءٌ قَالَتْ فَقُلْتُ يَا رَسُولَ اللَّهِ مَا عِنْدَنَا شَيْءٌ قَالَ فَإِنِّي صَائِمٌ... (رواه مسلم)



*Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga: «Uyda biror yegulik bormi?» - dedilar, «Yo Rasululloh, hech narsa yo‘q edi» - dedim. - «(Unda bugun) men ro‘zadorman» - dedilar.*[\[160\]](#)

*Bir yoki ikki oy o‘tar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam xonadoni faqat xurmo va suv bilangina kun kechirar edi.*[\[161\]](#)

Taomlari va taom turlarining ozligiga qaramay Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oliy axloqi va islomiy odobi Allohning ne‘matiga shukronalar keltirish, taomni tayyorlaganlarga minnatdorchilikbildirish, xato qilsalar, ayblamaslikka undar edi. Chunki, u (xato qiluvchi) tirishgan, biroq, xato qilgan-da. Shuning uchun ham, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam taomni ayblamas, pishiruvchini malomat qilmas, bor narsani rad, yo‘q narsani talab qilmas edilar! Ummatpayg‘ambarisollallohu alayhi va sallamning g‘ami qorni va ovqati emas edi!

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hech qachon taomni ayblamaganlar. Agar xohlasalar yeganlar, xohlamasalar yemaganlar»*[\[162\]](#)

Shayxulislom ibn Taymiyyarahimahulloh aytadilar:

*«Yeyish va kiyinishdagi eng yaxshi yo‘l - Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yo‘lidir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam inkoni bo‘lgan narsani hohlasalar yer, bor narsani qaytarmas, yo‘q narsani talab qilmas edilar. Agar non va go‘sht hozir bo‘lsa yer edilar. Agar meva, non va go‘sht hozir bo‘lsa yer edilar. Agar xurmoning o‘zi yoki nonning o‘zi hozir bo‘lsa yer edilar. Agar ikki xil taom hozir bo‘lsa: «Men ikki xil taomni yemayman» demas, lazzeatli va shirali taomlardan bosh tortmas edilar. U zotning so‘zlaridan: «...Lekin Men ro‘za ham tutaman, og‘zim ochiq ham bo‘ladi. (Kechalari namoz uchun) turaman ham, uxlayman ham. Ayollarga ham uylanaman. Go‘sht ham yeyman. Bas, kim mening sunnatimdan yuz o‘girsas, u mendan emas».*

*Alloh ta‘olo halol narsalarni yeyish va O‘ziga shukr etishga amr etdi. Shuning uchun ham, halol narsalarni harom qilgan odam haddidan oshgan, Allohga shukr qilmagan odam esa, Allohning haqqini zoye qilgan noshukur bo‘ladi.*

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo‘li eng to‘g‘ri yo‘lidir. Undan burilish esa ikki tarafga olib boradi:*

*(Birinchi) Isrof qilgan va ma‘suliyatlarni ado etishdan yuz o‘girib, mayilliklariga berilgan insonlar.*

*(Ikkinchi) esa, halol narsalarni harom qilgan, Alloh ta‘olo buyurmagan rohiblikni o‘ylab topgan insonlar. Holbuki, Islom dinida rohiblik yo‘qdir».*

*«...Harbir halol yoqimlidir, harbir yoqimli haloldir. Alloh ta‘olo bizga yoqimli narsalarni halol qilib, nopok narsalarni harom qildi. Uning yoqimlili, biz uchun foydali va lazzeatli bo‘lishidir. Alloh ta‘olo bizga zararli bo‘lgan harbir narsani harom qildi, foydali bo‘lgan barcha narsaga ruxsat berdi».*

«...Odamlar yemoq, kiymoq, ochlik va to'qlikda turlicha bo'ladilar. Hattoki, bir kishining holi ham turlicha bo'lishi mumkin. Biroq, amallarning eng yaxshisi Alloh ta'ologa itoatli va qilgan odamga foydali bo'lganidir».[\[163\]](#)

### **Boshqalarning sharafini himoya qilishlari**

Majlislarning eng yaxshisi – ilm va zikr o'tirishlaridir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'z majlislarida xato qilganlarni tuzatar, bilmaganlarga o'rgatar, g'ofil qolganlarni ogohlantirar va majlislarida faqatgina yaxshiliklarinigina qabul qilar edilar. O'zgalarning so'zlarini eshitar, biroq, g'iybatni qabul qilmas, chaqimchilik va tuhmatlarga rozi bo'lmas edilar.

Itbon ibn Molik roziyallohu anhu dedilar:

«...Namoz o'qib bo'lganlaridan keyin Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni taomga taklif etdik. Uyimdagi mehmonlardan biri gap orasida: «Molik ibn Duxshun qayerda?» - dedi. Bir kishi:

- «U Alloh va rasulini yaxshi ko'rmaydigan munofiqdir» —dedi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

لا تَقُلْ ذَلِكَ أَلَا تَرَاهُ قَدْ قَالَ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ يُرِيدُ بِذَلِكَ وَجْهَ اللَّهِ ... فَإِنَّ اللَّهَ قَدْ حَرَّمَ عَلَى النَّارِ مَنْ قَالَ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ يَبْتَغِي بِذَلِكَ وَجْهَ اللَّهِ (رواه البخاري)

- «Unday dema, ko'rmaysanmi, u «La ilaha illalloh» degan va bu bilan Allohning yuzini istaydi. ...Darhaqiqat, Alloh O'zining yuzini umid qilib: «La ilaha illalloh» degan odamni jahannamga harom qildi» - dedilar».[\[164\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam yolg'ondan guvohlik berish va xuquqlarni poymol qilishdan ogohlantirar edilar!

Abu Bakra (Nafi' ibn Horis) roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ عَبْدِ الرَّحْمَنِ بْنِ أَبِي بَكْرَةَ عَنْ أَبِيهِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ قَالَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَلَا أُنَبِّئُكُمْ بِأَكْبَرِ الْكِبَائِرِ ثَلَاثًا قَالُوا بَلَى يَا رَسُولَ اللَّهِ قَالَ الْإِشْرَاكُ بِاللَّهِ وَعُفُوقُ الْوَالِدَيْنِ وَجَلْسَنَ وَكَانَ مُتَكِنًا فَقَالَ أَلَا وَقَوْلُ الزُّورِ قَالَ فَمَا زَالَ يُكْرَرُهَا حَتَّى قُلْنَا لَيْتَهُ سَكَتَ (رواه البخاري وفي مسلم: وشهادة الزور أو قول الزور)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uch bor:

- «Katta gunohlarning kattarog'ini aytib beraymi?» — dedilar.

Biz: - «Ha, ey Rasululloh» - dedik.

- «Allohga sherikqilishva ota-onagaoq bo'lish» - dedilar. Yonboshlagan edilar, o'tirib oldilar: - «Ogoh bo'linglar, yolg'on guvohlik berish! - dedilar. Bu so'zni ko'p takrorladilar, hatto biz: «Koshki, sukut saqlasalar!» - deb qoldik».[\[165\]](#)

Ummul mo‘miniyn Oisha roziyallohu anhoga muhabbatlari buyuk bo‘lsa-da, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam u kishining g‘iybat qilishlarini yomon sanadilar va g‘iybatning katta xatarini bayon qildilar.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ قُلْتُ لِلنَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ حَسْبُكَ مِنْ صَفِيَّةَ كَذَا وَكَذَا قَالَ غَيْرُ مُسَدِّدٍ تَعْنِي قَصِيرَةً فَقَالَ لَقَدْ قُلْتَ كَلِمَةً لَوْ مُزِجَتْ بِمَاءِ الْبَحْرِ لَمَزَجَتْهُ (رواه أبو داود)

*Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga: «Sofiyaning bunday-bunday bo‘lishi yetarlidir» - dedim. (Ba‘ziroviylar bu so‘zlari bilan Sofiya roziyallohu anhoning bo‘yi pastligiga ishora qildilar deganlar.) Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

**- «Siz shunday bir so‘zni aytdingiz-ki, agar uni dengiz suviga aralashtirilsa, uni ham buzar edi» - dedilar.**[\[166\]](#)

Asmo bint Yazid roziyallohu anho rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam birodarining sharafini himoya qilgan odamga bashorat berib dedilar:

عَنْ أَسْمَاءَ بِنْتِ يَزِيدَ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ مَنْ ذَبَّ عَن لَحْمِ أَخِيهِ بِالْغَيْبَةِ كَانَ حَقًّا عَلَى اللَّهِ أَنْ يُعْتِقَهُ مِنَ النَّارِ (رواه أحمد)

**«Birodarining go‘shini g‘iybat (bilan yeyilishi)dan himoya qilgan odamni jahannam azobidan ozod qilish, Alloh ta‘oloning zimmasida haqdir».**[\[167\]](#)

### **Allohni ko‘p zikr qilishlari**

Birinchi murabbiy Muhammad sollallohu alayhi va sallam ibodat qilish va qalbni Allohga bog‘lashga katta e‘tibor berar edilar. U zot bir lahzani ham Allohning zikri, hamdi, shukri, istig‘forva Allohga iltijosiz o‘tkazmas edilar. Holbuki, u zotning avvalgi va keyingi barcha gunohlari kechirilgan edi. U - shukronalar keltirgan banda vapayg‘ambar, hamdlar aytuvchi rasuldir. Rabbining qadrini bilib, Unga hamd aytib, duo va iltijo qildilar, vaqtning qadriga yetib, undan foydalandilar va uning toat-ibodat bilan obod bo‘lishiga haris bo‘ldilar.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

*«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh ta‘oloni harlahzada zikr qilar edilar»*[\[168\]](#)

Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar:

*«Biz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning bir o‘tirishda:*

**«Robbig‘firliy va tub alayya innaka antat tavvabur rohiym» (Robbim, meni kechir va tavbalarimni qabul et. Sen rahmli va tavbalarni qabul etuvchi zotsan) deb yuz marta takrorlaganlarini sanar edik»**[\[169\]](#)

Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar:

قَالَ أَبُو هُرَيْرَةَ سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ وَاللَّهِ إِنِّي لَأَسْتَغْفِرُ اللَّهَ وَأَتُوبُ إِلَيْهِ فِي الْيَوْمِ أَكْثَرَ (مِنْ سَبْعِينَ مَرَّةً) (رواه البخاري)

*Men Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning: «Alloh nomiga ont ichib aytamanki, men bir kunda Allohga yetmish martadan ko‘proqistig‘for aytib, tavbalar qilaman» deganlarini eshitganman.*[\[170\]](#)

*Ummul mo‘miniyn Ummu Salama roziyallohu anho Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uning huzurida bo‘lganlarida ko‘p qilgan duolari:*

يَا مُقَلَّبَ الْقُلُوبِ ثَبِّتْ قَلْبِي عَلَى دِينِكَ

*«Ya Muqollibal qulub, sabbit qolbiy ala diynik» (Ey qalblarni aylantiruvchi zot, mening qalbmni ditingda mustahkam qil) bo‘lganini zikr etdilar.*[\[171\]](#)

### **Qo‘shnilariga munosabati**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qo‘shnilarga munosabati g‘oyat go‘zal edi! Qalblarida qo‘shnilar uchun alohida ehtirom bor edi. Hatto, U zot ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qilgan hadisda:

عَنْ ابْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ مَا زَالَ جِبْرِيلُ يُوصِينِي بِالْجَارِ حَتَّى (ظَنَنْتُ أَنَّهُ سَيُورِثُهُ) (رواه البخاري)

*«Jibril menga qo‘shni haqida shunchalar ko‘p vasiyat qildi-ki, men qo‘shni merosxo‘r bo‘lib qolarmikin, deb o‘yladim» - dedilar.*[\[172\]](#)

Abu Zar roziyallohu anhu aytadilar:

عَنْ أَبِي ذَرٍّ قَالَ إِنَّ خَلِيلِي صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَوْصَانِي إِذَا طَبَخْتَ مَرَقًا فَأَكْثِرْ مَاءَهُ ثُمَّ انظُرْ أَهْلَ بَيْتِ مَنْ (جِيرَانِكَ فَأَصْبِهِمْ مِنْهَا بِمَعْرُوفٍ) (رواه مسلم)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga:*

*«Ey Abu Zar, agar sho‘rva qilsang, suvini ko‘proqqil va qo‘shnilaring holiga boqib, undan ularga ham ber!» - deb vasiyat qilgan edilar.*[\[173\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qo‘shnilarga ozor berishning yomon oqibatlaridan ogohlantirdilar va ularga doimo yaxshilik qilishga buyurdilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

(عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ لَا يَدْخُلُ الْجَنَّةَ مَنْ لَا يَأْمَنُ جَارَهُ بَوَائِقَهُ) (رواه مسلم)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:*

*«Qo‘shnisi uning yomonliklaridan xotirjam bo‘lmagan odam jannatga kirmaydi».*[\[174\]](#)

Abu Shurayh al-Xuzo‘iy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي شُرَيْحٍ الْخَزَاعِيِّ أَنَّ النَّبِيَّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ مَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ فَلْيُحْسِنْ إِلَى جَارِهِ (رواه مسلم)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

«*Kimki Alloh va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa qo'shnisiga yaxshilik qilsin!*»[\[175\]](#)

### Xushmuomalalıkları

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَتْ كَانَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِذَا بَلَغَهُ عَنِ الرَّجُلِ الشَّيْءَ لَمْ يَقُلْ مَا بَالَ فُلَانٍ يَقُولُ وَلَكِنْ يَقُولُ مَا بَالَ أَقْوَامٍ يَقُولُونَ كَذَا وَكَذَا (رواه أبو داود)

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga biror kishi haqida biror narsa yetib qolsa: «Falonchi nega unday deydi?» - deb aytmas, balki: «Odamlarga nima bo'ldi, nega unday-bunday deyaptilar?» - der edilar.*[\[176\]](#)

Anas ibn Molik roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ أَنَّ رَجُلًا دَخَلَ عَلَى رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَأْتَرُ صُفْرَةَ وَكَانَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَلَمًا يُوَاجَهُ رَجُلًا فِي وَجْهِهِ بَشِيءٌ يَكْرَهُهُ فَلَمَّا خَرَجَ قَالَ لَوْ أَمَرْتُمْ هَذَا أَنْ يَغْسِلَ هَذَا عَنْهُ (رواه أبو داود)

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam huzuriga yuzida sariq rang izi bo'lgan bir odam kirdi. Nabi sollallohu alayhi va sallam birovning yuziga u yoqtirmaydigan gapni kamdan-kam aytardilar. U odam chiqqandan so'ng: «Unga aytsangizlar, yuzidaginarsani yuvib tashlasa» - dedilar.*[\[177\]](#)

Ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar:

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَلَا أُخْبِرُكُمْ بِمَنْ يَحْرُمُ عَلَى النَّارِ أَوْ بِمَنْ تَحْرُمُ عَلَيْهِ النَّارُ عَلَى كُلِّ قَرِيبٍ هَيِّنٍ سَهْلٍ (رواه الترمذي)

«*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

«*Sizlarga jahannamga harom bo'ladigan yoki jahannam unga harom bo'ladigan kimsadan darak berayinmi? Jahannam muloyim, ochiqko'ngil va boshqalarga o'zini yaqin tutgan kishiga haromdir*» -deb marhamat qildilar.[\[178\]](#)

### Haqlarni ado etishlari

Inson zimmasidagi haqlar ko'pdir. Allohning haqqi, oila haqqi, nafs haqqi, bundan tashqari bandalarning haqlari ham bor. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vaqtlarni qanday taqsimlab, kunlaridan qanday foydalanganlar?!

Anas roziyallohu anhu dedilar:

أَخْبَرَنَا حُمَيْدُ بْنُ أَبِي حُمَيْدٍ الطَّوِيلُ أَنَّهُ سَمِعَ أَنَسَ بْنَ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ يَقُولُ جَاءَ ثَلَاثَةٌ رَهْطٍ إِلَى بُيُوتِ أَزْوَاجِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَسْأَلُونَ عَنْ عِبَادَةِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَلَمَّا أُخْبِرُوا كَانَهُمْ تَقَالُوهَا فَقَالُوا: وَأَيْنَ نَحْنُ مِنَ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَدْ غُفِرَ لَهُ مَا تَقَدَّمَ مِنْ ذَنْبِهِ وَمَا تَأَخَّرَ قَالَ أَحَدُهُمْ: أَمَا أَنَا فَإِنِّي أَصَلِّي اللَّيْلَ أَبَدًا وَقَالَ آخَرُ: أَنَا أَصُومُ الدَّهْرَ وَلَا أَفْطِرُ وَقَالَ آخَرُ: أَنَا أَعْتَزِلُ النِّسَاءَ فَلَا أَتَزَوَّجُ أَبَدًا فَجَاءَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِلَيْهِمْ فَقَالَ: أَنْتُمْ الَّذِينَ قُلْتُمْ كَذَا وَكَذَا أَمَا وَاللَّهِ إِنِّي لَأَخْشَاكُمْ لِلَّهِ وَأَنْفَقَكُمْ لَهُ لِكُنِّي أَصُومًا وَأَفْطِرًا وَأَصَلِّيًّا وَأَرْفُدُّ وَأَتَزَوَّجُ النِّسَاءَ فَمَنْ رَغِبَ عَنْ سُنَّتِي فَلَيْسَ مِنِّي (رواه البخاري)

«Uch kishi Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xonadoniga kelib, payg‘ambarimizning ibodatlari haqida so‘radilar. Ularga Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ibodatlarini aytib berilganida, go‘yoki ular zikr qilingan amallarni kam sanagandek bo‘ldilar va: «Biz qayerda-yu, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qayerdalar? U zotning avvalgi-yu, oxirgi gunohlari kechirilgan bo‘lsa?» - dedilar.

Ularning biri: «Men kechalari doimo namoz o‘qiyman»- dedi.

Ikkinchisi: «Men kunduzlari doimo ro‘zador bo‘lib, og‘zimni ochmayman» - dedi.

Uchinchisi esa: «Men ayollardan uzlat qilaman va hech ham uylanmayman» — dedi.

(Bu gaplardan xabar topgach) Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularning oldilariga keldilar va:

«Shunday-shunday gaplarni aytganlar sizlarmi?! Alloh nomiga ont ichib aytamanki, albatta men sizlardan ko‘ra Allohdan qo‘rquvchiroqva taqvolirog‘ingizman! Lekin, men ro‘za ham tutaman, og‘zim ochiq ham bo‘ladi. Namoz ham o‘qiyman, uxlayman ham va ayollarga uylanaman. Bas, kim mening sunnatimdan yuz o‘girsam, u Mendan emas» - dedilar.[\[179\]](#)

## Shijoat va bardoshlari

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning Allohning diniga yordam berish, Alloh so‘zini oliy qilish va Alloh bergan ne‘matlarni o‘z o‘rniga qo‘yish borasida katta ulushlari bor.

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ مَا ضَرَبَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ شَيْئًا قَطُّ بِيَدِهِ وَلَا امْرَأَةً وَلَا خَادِمًا إِلَّا أَنْ يُجَاهِدَ فِي (سَبِيلِ اللَّهِ) (رواه مسلم)

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh yo‘lidagi jihoddan boshqa payt qo‘llari bilan biron narsani - na bir xizmatkorni va na bir ayolni urmadilar».[\[180\]](#)

Quraysh zodagonlari va kofirlari qarshisida Islom diniga da‘vat etib yolg‘iz turishlari hamda Allohning nusрати kelguniga qadar bu dinda sabot bilan turishlari, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam shijoatining namunalaridan ba‘zisi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Men yolg‘iz o‘zimman, hamma menga qarshi!» - deb aytmadilar. Balki, Alloh ta‘ologa suyanib, da‘vatni oshkor qildilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam odamlarning eng shijoatlisi va matonatlisi

edilar. Jang paytida ba'zan odamlar qochar, U zot esa maydonda matonat ko'rsatib turar edilar!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Xiro g'orida ibodat qilib turgan paytlarida na Quraysh va na boshqa kofirlar u zotga ozor berishmagan edi. Qachonki, tavhid va Allohning o'zigagina ibodat qilish kerak ekanligiga ochiq da'vat qilganlaridagina, kofirlar jon-jahdlari bilan qarshilik ko'rsata boshladilar va hayratlanib:

(أَجْعَلِ الْإِلَهَةَ إِلَهًا وَاحِدًا إِنَّ هَذَا لَشَيْءٌ عَجَابٌ)

«(Shuncha) xudolarni bitta xudo qilib olibdimi?! Xaqiqatan bu juda qiziq narsa!»- dedilar[181].

Holbuki, ular butlarni o'zlari bilan Alloh o'rtasida vositachi qilib olgan edilar.

Alloh ta'olo bu haqda shunday deydi:

( مَا نَعْبُدُهُمْ إِلَّا لِيُقَرِّبُونَا إِلَى اللَّهِ زُلْفَى )

«...Biz u (oliha)larga bizlarni Allohga yaqin qiladilar, deb ibodat qilmoqdamiz» - deydilar»[182].

Yo'qsa, ular Alloh ta'oloning rububiyat (g'amxo'r tarbiyatkunandaligi)dagi yolg'izligiga iqror edilar:

( قُلْ مَنْ يَرْزُقُكُمْ مِنَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ قُلْ اللَّهُ وَإِنَّا أَوْ إِبَائِكُمْ لَعَلَى هُدًى أَوْ فِي ضَلَالٍ مُّبِينٍ )

«Ayting: «Samovotu Yerdan sizlarni kim rizqlantiradi?». (Siz) «Alloh» - deb ayting. Hech shubha yo'qki, biz va sizlar yo hidoyat uzramiz, yoki ochiq zalolatda»[183].

Musulmon do'stim, musulmonlar yashayotgan o'lkalarda o'liklardan ehtiyojlarini so'rash, ularni vositachi qilish, ularga nazr atash, ulardan qo'rqish va umid qilish kabi shirk amallarining yoyilgani haqida tafakkur qilib ko'ring! Bu shirk amallari sababli Alloh bilan bog'langan arqonlar uzildi va o'liklarabadiy Tirik bo'lgan zotning o'rniga qo'yildi:

(إِنَّهُ مَنْ يُشْرِكْ بِاللَّهِ فَقَدْ حَرَّمَ اللَّهُ عَلَيْهِ الْجَنَّةَ وَمَأْوَاهُ النَّارُ)

«Albatta kimda-kim Allohga shirk keltirsa, Alloh unga jannatniharom qilur, uning borar joyi do'zaxdir»[184]

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning uylaridan shimol tarafda joylashgan Uhud tog'iga qaraylik. Bu tog' oldida bo'lib o'tgan jang asnosida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qahramonligi, matonati va o'zlariga yetgan jarohatga bardoshlari ochiq ko'ringan edi. Ana shu jangda muborak yuzlaridan qon oqqan, kurak tishlari sindirilgan va boshlari yorilgan edi. Allohpayg'ambarimizga salavotusalomlar yo'llasin.



Sahl ibn Sa'd roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning jarohatlari haqida shunday deydi:

«Alloh nomiga ont ichib aytamanki, men Rasulullohning jarohatini kim yuvgani, unga kim suv quyib turgani va nimani dori qilinganini juda yaxshi bilaman. Qizlari Fotima roziyallohu anho jarohatniyuvar, Aliy roziyallohu anhu esa unga qalqonda suv quyib turar edi. Fotima roziyallohu anho suv qon kelishini kuchaytirganini ko'rganidan so'ng, bo'yraning bir parchasini olib kuydirdi-da, uni jarohatga bosdi. Qon to'xtadi. Rasulullohning tishlari sindi, yuzlari jarohatlandi va dubulg'alari boshlarida turganda sindi».[\[185\]](#)

Baro ibn Ozib roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning Hunayn jangidagi holatlarini shunday ta'riflaydi:

قَالَ الْبَرَاءُ : أَمَّا رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لَمْ يُؤَلَّ يَوْمَئِذٍ كَانَ أَبُو سُفْيَانَ بْنُ الْحَارِثِ أَخْذًا بَعِنَانَ بَعْلَتِهِ فَلَمَّا غَشِيَهُ الْمَشْرُكُونَ نَزَلَ فَجَعَلَ يَقُولُ :

أَنَا النَّبِيُّ لَا كَذِبَاتَا ابْنُ عَبْدِ الْمُطَلِّبِ

(قَالَ فَمَا رُبِّي مِنَ النَّاسِ يَوْمَئِذٍ أَشَدُّ مِنْهُ)رواه البخاري

«...O'sha kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aslo ortga chekinmadilar. Abu Sufyon ibn Horis u zotning xachiri tizginini ushlab olgan edi. Mushriklar yopirilib kelgach, xachirdan tushib:

*Men nabiymen, yolg'onmas so'zim*

*Abdulmuttalib o'g'li o'zim*

- deya boshladilar. U kuni ul zotdan ko'ra shiddatliroq odam ko'rilmadi».[\[186\]](#)

Dovyurak chavandoz, mashhur hadislar sohibi Aliy roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallam haqida shu so'zlarni aytdi:

«Ikki taraf bir-biri bilan to'qnashgan va jang avjiga chiqqanida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan himoyalana edik. Chunki, U zotdan ko'ra dushmanga yaqinroq boshqa kimsa qolmas edi».[\[187\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning da'vat ishidagi sabru-bardoshlari go'zal namunadir. Chunki, Alloh ta'olo U zot sababli din asoslarini tikladi. U zotning sahobalari va ularga ergashgan zotlar arab yarim oroli, Shom va Mavorounnahr zaminiga qadar yetib bordilar. Natijada, shaharu qishloqdagi har bir uyga Islom dini kirib bordi.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَنَسٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ لَقَدْ أَخَفْتُ فِي اللَّهِ وَمَا يُخَافُ أَحَدٌ وَلَقَدْ أُوزِيتُ فِي اللَّهِ وَمَا يُؤْدَى أَحَدٌ وَلَقَدْ أَتَتْ عَلَيَّ ثَلَاثُونَ مِنْ بَيْنِ يَوْمٍ وَلَيْلَةٍ وَمَا لِي وَلِإِبِلٍ طَعَامٌ يَأْكُلُهُ دُو كَبِدٍ إِلَّا شَيْءٌ يُؤَارِيهِ إِبْطُ (بلال)رواه الترمذي

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

**«Alloh yo'lida shunday (tahdid-po'pisalar bilan) qo'rqitildim-ki, boshqa hech kim bunchalar qo'rqitilmagan!**

**Alloh yo'lida shunday ozorlandimki, boshqa birov bunday ozorlanmagan!**

**Bir bor menga o'ttiz kecha va kunduz o'tdi, men va Bilol uchun jonzot yeyishi mumkin bo'lgan taomdan Bilolning qo'ltig'iga joylashadigan miqdorda ozuqamiz bo'lar edi».**[\[188\]](#)

Ul zotga kelgan boyliklar, o'ljalar va Alloh ta'olo ato etgan fathlar bo'lishiga qaramay Rasululloh sollallohu alayhi va sallam na bir dinor va na bir dirham meros qilib qoldirmadilar.

Balki, din va shariat ilmini qoldirdilar, u payg'ambarlik merosidir.

Kim bu merosni qo'lga kiritishni hohlasa, marhamat, istaganicha olaversin!

Oisha roziyallohu anho dedilar:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ مَا تَرَكَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ دِينَارًا وَلَا دِرْهَمًا وَلَا شَاةً وَلَا بَعِيرًا وَلَا أَوْصَى (بشيء) (رواه مسلم)

**«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam na dinor, na dirham, na qo'y va na tuya meros qilib qoldirdilar va na biron narsani vasiyat qildilar».**[\[189\]](#)

## **Duolari**

Duo ulkan ibodatlardan bo'lib, uni Allohdan boshqasi uchun qilish joiz emasdir.

Duo - Alloh ta'ologaga muhtojlikdir, kuch-quvvatga ega emaslik ifodasidir.

Duo - qullik belgisi, bashariy xokisorlikni sezishdir.

Duoda Alloh ta'ologaga hamdu sanolar aytish, fazlu marhamatni Uning O'zigagina xoslash bordir.

Shuning uchun ham, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

(الدُّعَاءُ هُوَ الْعِبَادَةُ) (رواه الترمذي عَنْ التُّعْمَانِ بْنِ بَشِيرٍ)

**«Duo - ibodatning o'zginasidir»**, degan edilar.[\[190\]](#)

Yana bir hadislarida esa:

(الدُّعَاءُ مُخُّ الْعِبَادَةِ) (رواه الترمذي عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ)

**«Duo – ibodatning iligi-mag'zidir»**, deganlar.[\[191\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh ta'olaga ko'p duo qilar, yalinar va muhtojligini ko'rsatar hamda duo uchun purma'no so'zlarni iste'mol qilar edilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning duolaridan namunalar:

اللَّهُمَّ أَصْلِحْ لِي دِينِي الَّذِي هُوَ عِصْمَةُ أَمْرِي وَأَصْلِحْ لِي دُنْيَايَ الَّتِي فِيهَا مَعَاشِي وَأَصْلِحْ لِي آخِرَتِي الَّتِي فِيهَا مَعَادِي وَاجْعَلْ الْحَيَاةَ زِيَادَةً لِي فِي كُلِّ خَيْرٍ وَاجْعَلْ الْمَوْتَ رَاحَةً لِي مِنْ كُلِّ شَرٍّ

(رواه مسلم)

**«Allohim, men uchun ishimning tutqichi bo'lgan dinimni, tirikchiligim bo'lgan dunyo hayotimni, oqibatim bo'ladigan oxiratimni isloh etgaysan! Hayotni men uchun barcha yaxshiliklarning ziyodalanishi, o'limni men uchun barcha yomonliklardan rohat qilgaysan!»**[\[192\]](#)

اللَّهُمَّ فَاطِرَ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ عَالِمَ الْغَيْبِ وَالشَّهَادَةِ أَنْتَ رَبُّ كُلِّ شَيْءٍ وَالْمَلَائِكَةُ يَشْهَدُونَ أَنَّكَ لَا إِلَهَ إِلَّا أَنْتَ فَإِنَّا نَعُوذُ بِكَ مِنْ شَرِّ أَنْفُسِنَا وَمِنْ شَرِّ الشَّيْطَانِ الرَّجِيمِ وَشَرِّكِهِ وَأَنْ نَقْتَرِفَ سُوءًا عَلَى أَنْفُسِنَا أَوْ نَجُرَّهُ إِلَى مُسْلِمٍ ((رواه أبو داود))

**«Allohim! Ey yeru-osmonni yaratgan, oshkorayu g'aybni biluvchi zot! Sen barcha narsaning Robbidirsan. Maloikalar Sendan o'zga iloh yo'q ekaniga guvohlik berurlar. Biz Sendan nafsimizning yomonligidan, Shaytonning yomonligi va uning shirk-fitnalaridan, o'zimizga yoki biror musulmonga yomonlik yetkazib qo'yishdan panoh tilaymiz»**[\[193\]](#)

(اللَّهُمَّ اكْفِنِي بِحَلَالِكَ عَنْ حَرَامِكَ وَأَغْنِنِي بِفَضْلِكَ عَمَّنْ سِوَاكَ) (رواه الترمذي)

**«Allohim, meni haloling ila haromingdan kifoyalantir va o'z marhamating-la, o'zingdan boshqalardan behojat qil!»**[\[194\]](#)

اللَّهُمَّ إِنِّي ظَلَمْتُ نَفْسِي ظُلْمًا كَثِيرًا وَلَا يَغْفِرُ الذُّنُوبَ إِلَّا أَنْتَ فَاعْفِرْ لِي مَغْفِرَةً مِنْ عِنْدِكَ وَارْحَمْنِي إِنَّكَ أَنْتَ الْعَفُورُ الرَّحِيمُ (رواه البخاري)

**«Allohim, men (gunohlarim sababli) o'zimgako'p jabr qildim, gunohlarni esa faqat Sen kechirursan. Menga O'z huzuringdan mag'firat ato et va menga rahm qil. Shubhasiz, Sen kechirguvchi, rahmdil zotsan!»**[\[195\]](#)

(اللَّهُمَّ اعْنِي عَلَى ذِكْرِكَ وَشُكْرِكَ وَحُسْنِ عِبَادَتِكَ) (رواه أبو داود)

**«Allohim! Seni zikr etishga, Senga shukr qilishga va go'zal ibodatingga meni musharraf etgin-ko'mak bergin.»**[\[196\]](#)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qiyinchilik davrlarida ham, farovonlik davrida ham Alloh ta'olaga ko'p duo qilar edilar. Badr kunida musulmonlarning g'alabasi va mushriklarning mag'lubiyatini so'rab uzoq vaqt duoga qo'l ko'tarib turganlaridan, yelkalaridagi ridolari yerga tushib ketgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'zlari, oilalari, sahobalari va barcha musulmonlar uchun duo qilar edilar.

**Ziyoratning nihoyasi**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning go‘zal siyratlari, jihodu musibatlarini haqidagi rivoyatlar bilan tanishib chiqdik. Endi barchamizning zimmasida Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nisbatan ado etishimiz kerak bo‘lgan haqlar bordir. Biz shu haqlarni bajarish bilan barcha ezguliklarni mukammal qilaylik va to‘g‘ri yo‘ldan yuraylik.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga nisbatan ummat zimmasidagi haqlardan ba‘zilari quyidagilardir:

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga so‘z va amalda sadoqatli iymon keltirish;

Olib kelgan barcha narsalarida U zotni tasdiqlash;

U zotga itoat etishning farzligi va itoatsizlik qilishdan ehtiyot bo‘lish;

Masalalarning hukmida U zotga murojaat etish va U zotning xukmiga rozi bo‘lish;

U zotni g‘uluv va kamsitishsiz o‘z martabasiga qo‘yish;

U zotga ergashish va U zotdan barcha ishlarda o‘rnak olish;

U zotni oila, farzand va barcha odamlardan ko‘ra ko‘proq sevish, ulug‘lash va xurmatlash;

U zot olib kelgan dinga yordam berish, U zotning sunnatini himoya qilish va musulmonlar o‘rtasida jonlantirish;

U zotning sahobalarini sevish, ular uchun Allohdan rozilik so‘rash hamda ularning tarjimai hollarini o‘rganish.

Allohpayg‘ambarimizga beaded salavotu – salomlar yo‘llasin!

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni yaxshi ko‘rish alomatlaridan biri - U zotga salavot aytishdir.

Alloh ta‘olo dedi:

(إِنَّ اللَّهَ وَمَلَائِكَتَهُ يُصَلُّونَ عَلَى النَّبِيِّ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا صَلُّوا عَلَيْهِ وَسَلِّمُوا تَسْلِيمًا)

**«Albatta, Alloh va Uning farishtalaripayg‘ambarga salavot aytadilar. Ey mo‘minlar, (sizlar ham ) Unga salavotu-salom aytinglar!»**[\[197\]](#)

Avs ibn Avs roziyallohu anhu rivoyat qiladi:

عَنْ أَوْسِ بْنِ أَوْسٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِنَّ مِنْ أَفْضَلِ أَيَّامِكُمْ يَوْمَ الْجُمُعَةِ فِيهِ خُلِقَ آدَمُ وَفِيهِ النَّفْخَةُ وَفِيهِ الصَّعْقَةُ فَأَكْثَرُوا عَلَيَّ مِنَ الصَّلَاةِ فِيهِ فَإِنَّ صَلَاتَكُمْ مَعْرُوضَةٌ عَلَيَّ فَقَالَ رَجُلٌ يَا رَسُولَ اللَّهِ كَيْفَ تُعْرَضُ صَلَاتُنَا عَلَيْكَ وَقَدْ أَرَمْتَ بَعْضِي بَلِيَّتٍ فَقَالَ إِنَّ اللَّهَ حَرَّمَ عَلَيَّ الْأَرْضَ أَنْ تَأْكُلَ أَجْسَادَ الْأَنْبِيَاءِ (رواه ابن ماجه)

*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:*

**«Kunlaringizning eng afzali - juma kunidir. U kunda Odam (alayhissalom) yaratildi. U kunda (surga) dam uriladi va (uning oqibatida barcha jonli maxluqot) behush bo'ladi. Bas, u kuni Menga ko'p salavotlar aytinglar! Chunki, sizlarning salavotlaringiz menga ko'ndalang qilinadi» - dedilar.**

Sahobalardan biri: «Yo Rasululloh, chirib ketgan bo'lsangiz Sizga bizning salavotlarimiz qanday ko'ndalang qilinadi?» - deb savol berdi.

Unga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

**«Alloh ta'olopayg'ambarlarning jasadlarini yeyishni Yerga harom qildi» - deb javob berdilar.**[\[198\]](#)

Muhammad sollallohu alayhi va sallamning ummati o'zpayg'ambarining haqqiga baxillik qilmasligi kerak.

Chunki, Aliy ibn Abu Tolib roziyallohu anhu rivoyat qiladilarki:

عَنْ عَلِيِّ بْنِ أَبِي طَالِبٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ الْبَخِيلُ الَّذِي مَنْ ذُكِرَتْ عَنْدَهُ فَلَمْ يُصَلِّ (عَلِيٌّ رَوَاهُ التِّرْمِذِيُّ)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam:

**«Baxil - uning huzurida zikr qilinganimda menga salavot aytmagan odamdir» - deganlar.**[\[199\]](#)

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ مَا جَلَسَ قَوْمٌ مَجْلِسًا لَمْ يَذْكُرُوا اللَّهَ فِيهِ وَلَمْ يُصَلُّوا عَلَيَّ نَبِيِّهِمْ إِلَّا كَانَ عَلَيْهِمْ تِرَةٌ فَإِنْ شَاءَ عَذَّبُهُمْ وَإِنْ شَاءَ غَفَرَ لَهُمْ (وَمَعْنَى قَوْلِهِ تِرَةٌ يَعْني حَسْرَةً وَنَدَامَةً وَ قَالَ (بَعْضُ أَهْلِ الْمَعْرِفَةِ بِالْعَرَبِيَّةِ التِّرَةُ هُوَ النَّارُ) (رَوَاهُ التِّرْمِذِيُّ)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

**«Bir qavm bir yerda o'tirib Allohni zikr etmas vapayg'ambarlariga salavot aytmas ekanlar, ularga hasrat va nadomat (yoki o'ch) bo'lur: Agar (Alloh) xohlasi ularni azoblaydi, xohlasi kechiradi»**[\[200\]](#)

## Vidolashuv

Yer yuziga Iymon nuri taralgan ushbu xonadondan chiqar ekanmiz, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatlari bizlar uchun hamda dunyo mashaqqatlari va jahannamazobidan qutilishni istagan barcha insonlaruchun mayoq, hidoyat izlaganlar uchun yo'l bo'lib qoladi.

Endi, salaf ulamolariva ularning bu buyuk sunnatga ergashish borasidagi harisliklari haqida to'xtalib o'tamiz. Shoyad Alloh ta'olo bizni chiroyli namuna va o'rnak olishga muyassar qilsa.

Ahli sunnat imomlaridan Ahmad ibn Hanbal rahimahulloh dedilar:

«Qaysi hadisni yozgan bo'lsam, unga amal qildim. Hatto, bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning xijoma qildirganidan (qon oldirganidan) so'ng Abu Toybaga bir dinor berganini o'qidim, men ham qon oldirganimda qon oluvchi (xajjom)ga bir dinor berdim»[\[201\]](#)

Abdurrahmon ibn Mahdiy rahimahulloh aytadi:

«Sufyon rahimahullohning: «Menga Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan biron bir hadis yetib kelgan bo'lsa, unga bir marta bo'lsada amal qildim» - deb aytganini eshitganman».

Muslim ibn Yasor rahimahulloh dedilar:

«Men oyoq kiyimim bilan namoz o'qiyman. Aslida ularni yechish men uchun qiyin emas. Biroq, men sunnatga rioya qilmoqchi bo'laman»[\[202\]](#) (Tanbeh: buni joynamoz to'shalmagan o'rinlarda qilinadi.)

Risolamizning xotimasida muhtaram kitobxon uchun katta mas'uliyat yuklovchi bir hadisni taqdim etmoqchimiz.

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar:

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ كُلُّ أُمَّتِي يَدْخُلُونَ الْجَنَّةَ إِلَّا مَنْ أَبِي قَالُوا يَا رَسُولَ اللَّهِ (وَمَنْ يَأْبَى قَالَ مَنْ أَطَاعَنِي دَخَلَ الْجَنَّةَ وَمَنْ عَصَانِي فَقَدْ أَبَى) (رواه البخاري)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar:

**«Ummatning hammasi Jannatga kiradilar, faqatgina yuz o'girganlari kirmaydilar».** Sahobalar:

- «Yo Rasululloh, kimlar yuz o'giradi?» - dedilar.

- **«Kimki menga itoat qilsa jannatga kiradi. Kimki menga osiy bo'lsa, ana shu yuz o'girdir»** - debjavob berdilar.[\[203\]](#)

Allohim, bizgapayg'ambaring Muhammad sollallohu alayhi va sallamni yaxshi ko'rish, to'g'riyo'ldauning ko'rsatmalaridan og'ishmay yurishni nasib et!

Allohim, kecha-kunduzlar almashar ekan, solih, zokirlar zikr etarkanlar, Sen Unga salavotlar yo'lla!

Allohim, Buyuk Firdavs jannatida bizgapayg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam bilanbirga bo'lishni nasib et! U zotni ko'rish, havzlaridan suv ichish va undan keyin hech qachon chanqamaslikni nasib et!

Alloh ta'olopayg'ambarimizga, U zotning oilasi va barcha sahobalariga salavotu – salomlar yo'llasin!.

\*\*\*

## **Mundarija**

|                                                               |   |
|---------------------------------------------------------------|---|
| Muqaddima .....                                               | 2 |
| Ziyorat.....                                                  |   |
| Safar.....                                                    |   |
| Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ko‘rinishlari..... |   |
| Gapirishlari.....                                             |   |
| Uy jihozlari.....                                             |   |
| Qarindoshlar bilan aloqalari.....                             |   |
| Payg‘ambaruylarida.....                                       |   |
| Turmushdagi xususiyatlari.....                                |   |
| Ul zotning so‘z va ta’limlaridan namunalar.....               |   |
| Qizlariga muomalalari.....                                    |   |
| Ahli-ayolga munosabatlari.....                                |   |
| Mo‘minlarning onalari.....                                    |   |
| Hazillari.....                                                |   |
| Uyqulari.....                                                 |   |
| Tungi ibodatlari.....                                         |   |
| Bamdoddan so‘ng.....                                          |   |
| Choshgoh namozi.....                                          |   |
| Nafl namozlarini uyda o‘qishlari.....                         |   |
| Yig‘ilari.....                                                |   |
| Tavoze’lari.....                                              |   |
| Xizmatkorlariga munosabatlari.....                            |   |
| Sovg‘aga munosabatlari.....                                   |   |



Mehmondoʻstliklari.....  
Bolalarga nisbatan mehr-shafqatlari.....  
Hilm va sabrlari.....  
Taomlari.....  
Boshqalarning sharafini himoya qilishlari.....  
Allohni koʻp zikr qilishlari.....  
Qoʻshnilariga munosabati.....  
Xushmuomalaliklari.....  
Haqlarni ado etishlari.....  
Shijoat va bardoshlari.....  
Duolari.....  
Ziyoratning nihoyasi.....  
Vidolashuv.....

---

[1] «Qalam»: 4.

[2] Ibn Moja rivoyati.

[3] «Oli Imron»: 31

[4] «Ahzob»: 21

[5] «Niso»: 13,14

[6] Muttafaqun alayh

[7] Imom Muslimrivoyati.

[8] Imom Termiziy rivoyati.

[9] «Hashr»: 7

[10] Ibn Taymiyya, «Majmuʻul-fatava», 27:251

- [11] Muttafaqun alayh.
- [12] Nasoiy rivoyati.
- [13] Termiziy rivoyati.
- [14] Ibn Sa'd «at-Tabaqotul-Kubro», 1:274
- [15] Imom Buxoriy rivoyati.
- [16] Imom Buxoriy rivoyati.
- [17] Imom Buxoriy rivoyati.
- [18] Muttafaqun alayh.
- [19] Imom Buxoriy rivoyati.
- [20] Abu Dovud rivoyati.
- [21] Abu Dovud rivoyati.
- [22] Imom Buxoriy rivoyati.
- [23] Ibn Moja rivoyati.
- [24] Ibn Moja rivoyati.
- [25] Ibn Moja rivoyati.
- [26] Imom Termiziy rivoyati.
- [27] Muttafaqun alayh
- [28] Imom Termiziy rivoyati.
- [29] Muttafaqun alayh
- [30] Ibn Qoyyim «Zodul-Maod», 2:381
- [31] Imom Termiziy rivoyati.
- [32] Imom Termiziy rivoyati.
- [33] Imom Muslim rivoyati.
- [34] «Shuaro»:214
- [35] Imom Muslim rivoyati.

[36] «Tavba»:113

[37] «Qasas»:56

[38] Imom Ahmad, Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari.

[39] Imom Ahmad va Imom Termiziy rivoyati.

[40] Imom Muslim rivoyati.

[41] Imom Buxoriy rivoyati.

[42] Imom Buxoriy rivoyati.

[43] Buxoriy va Muslim rivoyati.

[44] Ibn Moja va Ibn Hibbon rivoyatlari

[45] Imom Ahmad rivoyati.

[46] Imom Termiziy rivoyati.

[47] Imom Buxoriy rivoyati.

[48] Buxoriy va Muslim rivoyati.

[49] Termiziy va Abu Dovud rivoyati.

[50] Abu Dovud rivoyati.

[51] Buxoriy va Muslim rivoyati.

[52] Imom Muslim rivoyati.

[53] Buxoriy va Muslim rivoyati.

[54] - Xalilning ma'nosi do'stnikidan ancha kuchlidir. Xalil xaliliga butun vujudi bilan bog'lanib qoladi. Go'yoki u fakat xalilniki bo'lib qoladi. Shuning uchun xalilga do'st deb ma'no aytish to'g'ri kelmaydi.

[55] Imom Muslim rivoyati.

[56] Abu Dovud, Termiziy va Nasoiy rivoyatlari

[57] «Masad» surasi

[58] Imom Muslim rivoyati.

[59] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari.

[60] Imom Muslim rivoyati.

[61] Imom Muslim rivoyati.

[62] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari

[63] Imom Muslim rivoyati.

[64] Imom Abu Dovud va Imom Termiziy rivoyati.

[65] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari

[66] Imom Buxoriy rivoyati.

[67] Imom Ahmad rivoyati.

[68] Imom Buxoriy rivoyati.

[69] Imom Termiziy rivoyati.

[70] Imom Termiziy rivoyati.

[71] Imom Muslim rivoyati.

[72] «Toha»: 132

[73] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari

[74] Tunda bedor boʻlib tahajjud oʻqish. Tahajjud aslida 3-13 rakatgacha boʻlgan tungi nafl namoz, uning oxiri bir yoki uch rakat bilan vitr qilinadi.

[75] Abu Dovud, Nasoiy va Ibn Moja rivoyati.

[76] Misvok - arok daraxti ildizi boʻlib, bir tomonini moʻyqalamga oʻxshatib uchlanadi va tish tozalashda ishlatiladi. Uning taʼmi achchiq va oʻziga xos boʻyi boʻlgani uchun ogʻiz hidini yaxshi oladi.

[77] Imom Ahmad rivoyati.

[78] Imom Muslim rivoyati.

[79] Imom Muslim rivoyati.

[80] Imom Abu Dovud rivoyati.

[81] Imom Ahmad rivoyati.

[82] Imom Abu Dovud rivoyati.

[83] Imom Ahmad rivoyati.

- [84] Imom Ahmad rivoyati.
- [85] Muttafaqun alayh
- [86] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari.
- [87] Imom Muslim rivoyati.
- [88] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [89] Imom Buxoriy rivoyati.
- [90] Imom Muslim rivoyati.
- [91] Imom Muslim rivoyati.
- [92] Imom Muslim rivoyati.
- [93] Imom Ibn Moja rivoyati.
- [94] «Muzzammil»: 1- 4.
- [95] Imom Ibn Moja rivoyati.
- [96] Imom Nasoiy va Ahmadrivoyatlari.
- [97] Imom Muslim rivoyati.
- [98] Imom Muslim rivoyati.
- [99] Imom Termiziy rivoyati.
- [100] Imom Muslim rivoyati.
- [101] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [102] Imom Buxoriy rivoyati.
- [103] «Zodul ma'od», 1 : 312
- [104] Imom Ahmad rivoyati.
- [105] «Niso»: 41.
- [106] Imom Buxoriy rivoyati.
- [107] Imom Termiziy rivoyati.
- [108] Imom Ahmad rivoyati.

- [109] Imom Ahmad rivoyati.
- [110] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [111] Imom Ahmad rivoyati.
- [112] «A'rof»: 188
- [113] Imom Ahmadrivoyati.
- [114] Imom Abu Dovud rivoyati.
- [115] Imom Buxoriyrivoyati.
- [116] Imom Muslim rivoyati.
- [117] Imom Ahmad rivoyati.
- [118] Imom Muslim rivoyati.
- [119] Imom Termiziy rivoyati.
- [120] Imom Muslimrivoyati.
- [121] Imom Muslim rivoyati.
- [122] Imom Buxoriyrivoyati.
- [123] Imom Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [124] Imom Buxoriyrivoyati.
- [125] Imom Buxoriyrivoyati.
- [126] Imom Buxoriyrivoyati.
- [127] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [128] Imom Buxoriyrivoyati.
- [129] Imom Buxoriyrivoyati.
- [130] Imom Termiziy rivoyati.
- [131] Imom Termiziy rivoyati.
- [132] Abu Nu'aym «Daloil» kitobida naql qildi
- [133] Imom Muslim rivoyati.

- [134] Imom Buxoriy rivoyati.
- [135] Ibn Sa'd, (Imom Termiziy va Ibn Moja) rivoyati.
- [136] Imom Buxoriy rivoyati.
- [137] Imom Buxoriy rivoyati.
- [138] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [139] Imom Buxoriy rivoyati.
- [140] «As-silsilatul-sahiha», hadis: 70.
- [141] Al-Ahadisis-sahiha»: 2141. «Sahihul-Jome'»: 5052.
- [142] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [143] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [144] Imom Termiziy rivoyati.
- [145] Imom Muslim rivoyati.
- [146] Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [147] Imom Buxoriy rivoyati.
- [148] Imom Buxoriy rivoyati.
- [149] Imom Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [150] Imom Buxoriy va Muslim rivoyati.
- [151] Xokim «al-Mustadrak» kitobida bu hadisni (6547) zikr qilib, «sahih» dedi.
- [152] Imom Nasoiy rivoyati.
- [153] Imom Muslim rivoyati.
- [154] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [155] Imom Ahmad rivoyati.
- [156] Imom Termiziy rivoyati.
- [157] Imom Buxoriy rivoyati.
- [158] Imom Muslim rivoyati.



- [\[159\]](#) Imom Buxoriy rivoyati.
- [\[160\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[161\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[162\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[163\]](#) Ibn Taymiyya, «Majmu'ul-fatovo.» 22:310
- [\[164\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[165\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[166\]](#) Imom Abu Dovud rivoyati.
- [\[167\]](#) Imom Ahmad rivoyati.
- [\[168\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[169\]](#) Imom Abu Dovud rivoyati.
- [\[170\]](#) Imom Buxoriy rivoyati.
- [\[171\]](#) Imom Termiziy rivoyati.
- [\[172\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[173\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[174\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[175\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[176\]](#) Imom Abu Dovud rivoyati.
- [\[177\]](#) Imom Ahmad va Abu Dovud rivoyati.
- [\[178\]](#) Imom Termiziy rivoyati.
- [\[179\]](#) Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [\[180\]](#) Imom Muslim rivoyati.
- [\[181\]](#) «Sod»: 5
- [\[182\]](#) «Zumar» : 3
- [\[183\]](#) «Saba'» : 24

- [184] «Moida» : 72
- [185] Imom Buxoriy rivoyati.
- [186] Imom Buxoriy rivoyati.
- [187] Imom Muslim rivoyati.3: 1401. Bagʻaviy, «Sharhus-sunna»
- [188] Imom Termiziy va Ahmadrivoyati.
- [189] Imom Muslim rivoyati.
- [190] Imom Termiziy rivoyati.
- [191] Imom Termiziy rivoyati.
- [192] Imom Muslim rivoyati.
- [193] Imom Abu Dovud rivoyati.
- [194] Imom Termiziy rivoyati.
- [195] Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari
- [196] Abu Dovud va Nasoiy rivoyati.
- [197] «Axzob» : 56
- [198] Ibn Moja rivoyati.
- [199] Imom Termiziy rivoyati.
- [200] Imom Termiziy rivoyati.
- [201] «Siyaru aʼlamun nubala», 11: 213
- [202] «Siyaru aʼlamun nubala»,: 7: 232.
- [203] Imom Buxoriy rivoyati.